

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Tar.44.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

**KARIYEV ADIL AXMADJANOVICH**

**FARG‘ONA FIQH MAKTABI OLIMLARINING ISLOM ILMLARI  
RIVOJIDAGI O‘RNI (IX-XIII ASRLAR)**

**07.00.03 – Jahon tarixi  
07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va  
tarixiy tadqiqot usullari**

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2024**

**Tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора исторических наук (DSc)**

**Contents of the abstract dissertation of the Doctor of historical sciences (DSc)**

**Kariyev Adil Axmadjanovich**

Farg‘ona fiqh maktabi olimlarining islom ilmlari rivojidadagi o‘rni  
(IX-XIII asrlar).....3

**Kariyev Adil Axmadjanovich**

The role of scientists of the Fergana school of fiqh in the development of Islamic  
sciences (IX-XIII centuries).....35

**Кариев Адил Ахмаджанович**

Роль ученых Ферганской школы фикха в развитии исламских наук  
(IX-XIII вв.).....69

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxatu**

Список опубликованных работ

List of published works.....75

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Tar.44.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

**KARIYEV ADIL AXMADJANOVICH**

**FARG‘ONA FIQH MAKTABI OLIMLARINING ISLOM ILMLARI  
RIVOJIDAGI O‘RNI (IX-XIII ASRLAR)**

**07.00.03 – Jahon tarixi  
07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va  
tarixiy tadqiqot usullari**

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.DSc /Tar173 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezume) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.beruni.uz) hamda «Ziyonet» Axborot ta‘lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Abduhalimov Bahrom Abdurahimovich**  
Tarix fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Yusupova Dilorom Yunusovna,**  
tarix fanlari doktori, professor, akademik;

**Anarbayev Abdulhamid,** tarix fanlari  
doktori, professor;

**Islamov Zohidjon Mahmudovich,**  
filologiya fanlari doktori, professor.

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi  
huzuridagi O‘zbekistondagi islom sivilizatsiya  
markazi.**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Tar.44.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil \_\_\_\_\_soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi 798-uy. Tel:(+99871) 262-54-61, fax: (+99871) 262-52-77, e-mail: beruni1@uznet.net).

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi 798-uy. Tel: (+99871) 262-54-61.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.  
(2024 yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_raqamli reestr bayonnomasi)

**N.I. Karimova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi o‘rinbosari, tarix fanlari doktori,  
professor

**F.Dj.Djumaniyazova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori, PhD

**E.Z. Nuriddinov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi tarix fanlari  
doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tarixshunosligida islom dinining vujudga kelishi va shu asosda tarkib topgan islom sivilizatsiyasini tadqiq etish muhim yo‘nalishlardan bo‘lib kelmoqda. Keyingi paytda integratsiyalashuv jarayonining chuqurlashuvi sharoitida bu mavzuni o‘rganishga qiziqish yanada ortib, musulmon mamlakatlari siyosiy, ma‘naviy va madaniy rivoji tarixida mintaqaviy fiqh maktablarining o‘rni va o‘ziga xos jihatlari, jumladan islom dunyosining turli mamlakatlardagi siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy jarayonlarga ta‘siri masalasini tadqiq qilishning ahamiyat oshib bormoqda. Shu nuqtai nazardan insoniyat taraqqiyoti va islom madaniyatini rivojida muhim o‘rin tutgan mintaqaviy ilmiy maktablar tarixi va faoliyatini ilmiy konseptual o‘rganish muhimdir.

Dunyodagi ilmiy-tadqiqot markazlari va etakchi universitetlarida hanafiy ta‘limoti, IX-XIII asrlarda hanafiy fiqhining xususiyatlari, mintaqaviy maktablar, islom ilmlari sohasida faoliyat yuritgan allomalar va ularning ilmiy merosi, hanafiy fiqhiga doir manbalarni hamda ularning ijtimoiy-tarixiy, huquqiy va matnshunoslik jihatlari ochib berishga qaratilgan izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, musulmon sharqida ilk islom davridan boshlab shakllangan dastlabki mazhab, madrasa va mintaqaviy maktablar tarixi va ahamiyatiga bagishlangan tadqiqotlar amalga oshirildi. Farg‘ona fiqh maktabi tarixi bo‘yicha maxsus tadqiqotlar olib borilmagan, lekin mazkur hududdan etishib chiqqan allomalarning asarlari tadqiqiga bagishlangan ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek bugungi kunda mamlakatimiz hududida o‘rta asrlarda shakllangan va umumjahon islom sivilizatsiyasi taraqqiyotiga xizmat qilgan mintaqaviy fiqh maktablari alohida o‘rin tutishini ta‘kidlash zarur. Shu bois mahalliy ilmiy markazlar, jumladan Farg‘ona fiqh maktabi tarixini tadqiq qilish va uning mintaqada madaniy yuksalish va islom ilmlari rivojida o‘rnini aniqlash mavjud tadqiqotlar salmogini ortishiga xizmat qiladi.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda mintaqalar tarixi, jumladan IX-XII asrlarda O‘rta Osiyoda vujudga kelgan musulmon renessansi davrida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy merosni o‘rganish, ular yaratgan ilmiy maktablar an‘analarini davom ettirish bugun yangi uchinchi renesans bo‘lag‘asida turgan xalqimiz uchun kunning dolzarb vazifalari sirasiga kiradi. Zero, “O‘zbekistonning jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan mamlakat sifatidagi xalqaro obro-u-tiborini yanada mustahkamlash, boy yozma me‘rosini saqlash, o‘rganish va keng targ‘ib qilish ishlarini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish”<sup>1</sup> nihoyatda muhim. Mamlakatimiz hududida o‘rta asrlarda shakllangan va nafaqat mintaqamiz balki butun musulmon dunyosida islom ilmlari, jumladan fiqh ilmining rivojida salmoqli o‘rin tutgan Farg‘ona fiqh maktabi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini ilk bor tadqiq qilinishi, Farg‘ona fiqh maktabi tushunchasining tarix

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2995-sonli qaror. 2017 yil 24 may.

ilmiga olib kirilishi O‘zbekistonning haqqoniy tarixini yoritish, jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini asoslash bilan birga, xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirish va o‘zligini anglashida alohida ahamiyat kasb e’tadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 fevraldagi PQ-2774-sonli “Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 27 martdagi PQ-2855-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-sonli “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”, 2017 yil 23 iyundagi PQ-3080-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, 2018 yil 16 apreldagi PF-5416-sonli “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoyishlari, 2022 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomalari hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ajdodlardan qolgan ma’naviy merosni o‘rganishga chuqur e’tibor qaratilganini anglatadi va mazkur tadqiqot ham bu vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.**

Jahonda Farg‘ona fiqh maktabi tarixi bo‘yicha maxsus tadqiqotlar olib borilmagan. Lekin mavzu bilan bilvosita bogliq IX-XIII asrlarda hanafiy fiqhining xususiyatlari, mintaqaviy maktablar, islom ilmlari sohasida faoliyat yuritgan allomalar va ularning ilmiy merosi, hanafiy fiqhiga oid manbalarning ijtimoiy-tarixiy, huquqiy va matnshunoslik jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan Heidelberg University, Freiburg University, Center of Islamic Studies in Freiburg (Germaniya), Cambridg University, University of Oxford Islomshunoslik instituti (Buyuk Britaniya), Toronto universitetining Yaqin va O‘rta Sharq sivilizatsiyalari departamenti (Kanada), Vashington universitetining Yaqin Sharq tillari va adabiyoti departamenti (Sietl), Prinston universitetining Yaqin Sharq tadqiqotlari departamenti, Columbia University, Cornal University, Illinois University (AQSh), Academy of Notaries Institute Hispano-Arab Culture, University of Granada (Ispaniya), International Society of Arabic Papyrology in Leiden-Holland (Gollandiya), Jerusalem University (Isroil), Cairo University (Misr), Suleymanie Library (Turkiya), Povolje Qozon federal universiteti (Rossiya), O‘XIA, O‘zbekiston islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida (O‘zbekiston) olib borilmoqda. Hanafiy fiqhiga oid tadqiqotlar orasida Farg‘ona fiqh maktabi

vakillari ilmiy merosiga oidlari ham bor.

Mazkur tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalar olingan: IX-XIII asrlarda Movarounnahr mintaqasida hanafiy fiqhiga oid tadqiqotlar sifatida maktab vakillarining ilmiy merosiga bag'ishlangan ishlar amalga oshirilgan (University of Wales, Lampeter,). Mintaqa allomalari asarlariga bitilgan sharhlar tahlil qilingan (Umm al-Qura University of Saudi Arabia), ularning hanafiy fiqhi rivojiga qo'shgan hissalar va bu jarayondagi tutgan o'rinlari ochib berilgan (Maktaba Muhammad ibn al-Hasan ash-Shayboniy. Timirkara, Pokiston), hanafiy fiqhida huquqiy masalalarning tahlili bobida faqihlarning yondoshuvlari, Qur'oni Karim matniga tayanishdagi xususiyatlari tadqiq qilingan (State University of New York, USA), islom shariatida nazariya, amaliyot va an'analarning manbalari tahlil qilingan (St Antonys Colleg, University of Oxford), hanafiy fiqhiga oid asarlarni g'arb tillariga tarjima qilishning g'oya va maqsadlari ochib berilgan (Legal Histories of the British Empire: Laws, Engagements and Legacies. London: Routledge), islom huquqida mazhab tushunchasi, hamda hanafiy mazhabi doirasidagi ixtiloflarning sabablari ko'rsatib berilgan (Harvard University), hanafiy fiqhiga oid mo'tabar manbalar tadqiqi va nashri amalga oshirilgan (Bristol: Amal Press, 2009; London: Mu'assasat al-Furqān lil-Turāth al-Islāmī, 2016; Cairo: Dār al-Ḥadīth,).

Jahonda hozirgi kunda o'rta asrlarda musulmon dunyosida yaratilgan hanafiy fiqhining turli jihatlari, jumladan shakllanish tarixi, hanafiy fiqhida inson huquqlari himoyasining sharqona talqini, demokratik tamoyillarning manbaviy asoslari, o'rta asrlarda yashab ijod etgan faqihlarning ilmiy merosini tarixiy - huquqiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy-huquqiy ildizlarini ochib berish, Movarounnahr mintaqasi ulamolari qalamiga mansub bo'lgan asarlarning qiyosiy o'rganish, manbalar tanqidiy matnini yaratish kabi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Farg'ona fiqh maktabi va bu maktab vakillarining islom ilmlari rivojidadagi o'rni masalasi alohida tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilmagan. Ammo Movarounnahr fiqhi doirasida Farg'ona mintaqasidan yetishib chiqqan allomalar ilmiy merosi muayyan darajada ilmiy tadqiqotlarga jalb qilingan.

Birinchi navbatda bio-bibliografik janrda asar yozgan mualliflar IX-XIII asrlarda Movarounnahr mintaqasida yashab ijod qilgan hanafiy mazhabi islom ilmlari ulamolari tarjimai holi va ilmiy merosi haqida umumiy ma'lumotlar berganlar. Jumladan, Abdulqodir al-Qurashiy (696/1297-774/1373)<sup>2</sup>, Ibn Qutlubug'a (801/1399-878/1474)<sup>3</sup> Mahmud ibn Sulaymon al-Kafaviy (vaf.990/1582)<sup>4</sup>, Hoji Xalifa (1017/1609-1067/1657)<sup>5</sup>, Abdulhay al-Laknaviy

2 ابو محمد عبد القادر ابن ابو الوفاء محمد ابن محمد المصري. الجواهر المضبوطة في طبقات الحنفية. مجلد ٢ - ١٩١٣ - حيدرآباد

3 ابن قطلبغا القاسم ابن عبد الله الصدني. تاج التراجم في طبقات الحنفية. لبيزغ - ١٩١٣

4 محمود ابن سليمان الكفوي. كتائب اعلام الاخيار من فقهاء مذهب النعمان المختار. ص. - ٣٧٩.

O'zR FA ShI qo'lyozmasi, inv. № 2929.

5 Haji Khalifa. Lexicon bibliographicum et encyclopedicum a Mustafa bin Abdallah Katib Jalabi. - London, 1858. V-VI. - R. 479-495.

(1263/1848-1303/1886)<sup>6</sup>, kabi mualliflarning asarlarida bu masalalar o‘rin olgan.

Zamonaviy tadqiqotchilardan professor A.Q.Mo‘minov ishlarida Mahmud ibn Sulaymon al-Kafaviyning “Kataib a’lom” asari asosida Movarounnahrda fiqh ilmining shakllanishi va bu jarayonda mahalliy maktablar va undagi mintaqa ulamolarining faoliyatiga e’tibor qaratgan<sup>7</sup>.

O‘zbekistonda mintaqadan yetishib chiqqan allomalar hayoti va ilmiy merosi bo‘yicha izlanishlar olib borilgan. Jumladan, A.X. Saidov, M. Nuritdinov, I. Abdullayev, M. Hasaniy, A.Sh. Juzjoniy, S. Isoqov, O‘.A. Sulstonov kabi olimlar Farg‘ona mintaqasining eng yirik namoyandalari Burhonuddin al-Marg‘inoniy shaxsiyati va ilmiy merosiga murojaat qilganlar<sup>8</sup>.

Bundan tashqari, Burhonuddin al-Marg‘inoniy qalamiga mansub “Hidoya” asarining V.N. Grodekov tomonidan 1893 yilda Toshkentda nashr qilingan ingliz tilidan rus tiliga tarjimasini prof. A.X. Saidov qayta nashr ettirdi<sup>9</sup>. Professor A.X. Saidov va M.Nuritdinovlar rahbarligida “Hidoya” asari birinchi jildining arab tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilinishi ta’minlandi.<sup>10</sup>

Musulmon sharqida islom dinida dastlab fiqhiy madrasa va maktablar, keyinchalik fiqhiy mazhablarning vujudga kelishi nazariyasi va amaliyoti masalalari qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Manno’ al-Qatton (1925-1999), Hasan Ibrohim Hasan, Shams ad-Din az-Zahabiy (672/1274-748/1348), Jaloluddin Abdurrahmon as-Suyutiy (849/1445-911/1505), Muhammad al-Xudriy (1876-1958), Vali ad-din Muhammad Solih al-Farfur (vaf.2020), Bint al-Mufti Mujib ar-Rahmon ad-Dayraviylarning tadqiqotlari shular jumlasidan<sup>11</sup>.

G‘arb mutaxassislari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning bir guruhi ham asosan Farg‘ona vodiysidan yetishib chiqqan allomalarning ilmiy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan. Jumladan, Uels Universiteti tadqiqotchisi Ahmad

6 ابو الحسنات محمد عبد الحي اللكنوي. الفوائد البهية في تراجم الحنفية. قازان - ۱۹۰۳

7 Муминов А.К. Катаиб а’лам ал-ахйар” ал-Кафави (ум. в 990/1582) как источник по истории ислама в Мавераннахре (III/IX-VII/XIV вв.). Автореф. дис... канд. ист. наук. – Л., 1991. – 14 с.; O‘sha muallif. Ханафитский мазхаб в истории Центральной Азии/ под редакцией С.М. Прозорова. – Алматы: Казак энциклопедиясы, 2015. – 400 с.

8 Saidov A.X. Burhonuddin al-Marg‘inoniy. ”Hidoya”- muhim huquqiy yodgorlik // O‘zbekiston ovozi. – 1994. – 3may; O‘sha muallif. Burhonuddin al-Marg‘inoniy buyuk huquqshunos. – T.: Adolat, 1997. – B. 45; Saidov A.X., Juzjoniy A.Sh. Sharq va inson huquqlari. – T.: Ijtimoiy fikr, – 1998. – 215 b.; Saidov A.X., Nuritdinov M. Fiqh ilmining sardori. // Ishonch. – 2000. 9 sentabr; Abdullayev I. Burhonuddin Marg‘inoniy // Namangan haqiqati. – 2000. 3 may; O‘ktam Eshonbobo. “Hidoya”ning sohibi. – Farg‘ona., 2000. – 25 b.; Abdulkhalkim Shar‘iy Juzjoniy. Marg‘inoniy va uning izdoshlari. – T., 2000. – 54 b.; Ishoqov S. Burhoniddin Marg‘inoniy va fiqh ilmi.– T.: Adolat, 2000. – 136 b.; Mahmud Hasaniy. Al-Marg‘inoniyning “Hidoya” asari va unga yozilgan sharhlar. –T.:A. Qodiriy nomidagi xalq merosi n-ti. 2000. – 45 b.; Sulstonov O‘. A. Burhoniddin Marg‘inoniy nasabi va avlodlari taqdiri. / Imom Buxoriy saboqlari. №2/ 2021. – B. 53 – 55.

9 Grodekov V.N. “Hidoya”ning rus tiliga tarjimasini Charlz Gameltonning ingliz tilidagi tarjimasidan amalga oshirgan. Qarang: Hamilton C. The Hedaya: Commentary on the Islamic Laws. Lahore: Premier Book House. (Original 1791 edition translated by order of the Governor-General and Council of Bengal, for the East India Company, printed by T. Bensley.)

<sup>10</sup>Burhonuddin al-Marg‘inoniy. Hidoya. Mas’ul muharrirlar huquq. f. d. Saidov A. X., falsaf. f. d. Nuriddinov M. – T.: Adolat, 2000. – 848 b.

<sup>11</sup> Shams ad-Din az-Zahabiy. Tarix al-Islam va ziyaluhu. Bayrut. Dar al-Kutub al-Arabiyy. 1990.; تأريخ محمد الخضرى. تاريخ الإسلام في بيروت- ۱۹۹۵; Hasan Ibrohim Hasan. At-Tarix al-Islamiy as-Siyasiy ad-Diniy as-Saqafiy al-Ijtimaiy. Dar al-Jil. – Bayrut, 1996. Ij.; ولي الدين محمد الفرور. المذهب في اصول المذهب علي المنتخب. - دمشق. ۱۹۹۹ تاريخ التشريع الاسلامى. Dar al-Jil. – Bayrut, 1996. Ij.; Jaloluddin Abdurrahmon as-Suyutiy. Tarix al-Xulafa. Bayrut. Dar ibn Hazm. 2002.; Bint al-Mufti Mujib ar-Rahmon ad-Dayraviy. Al-Hodi ila Riyod al-Fiqh va-l-Fuqaho. – Timrkara. Pokiston. 2014. – B. 253.

A'bbos tomonidan taqdim etilgan doktorlik dissertatsiyasi Husomuddin al-Axsikatiyning "Muntaxab al-Husomiy" asari qo'lyozmalari tadqiqi va matni nashriga bag'ishlangan<sup>12</sup>. Buyuk Britaniyaning Salford Universitetining (University of Salford) "Ijtimoiy-gumanitar va tillar" kafedrasida Xolid U'mar as-Salim taqdim etgan doktorlik dissertatsiyasi Burhonuddin al-Marg'inoniyning "al-Hidaya" asari va uning tarjimalariga<sup>13</sup>, Meron Yakovning maqolasi Burhonuddin al-Marg'inoniyning o'ziga xos uslubini yoritishga, Suhayl Hanifning Buyuk Britaniya Oksford universiteti Sent Antoni kollejida taqdim qilingan ilmiy ishi Burhonuddin al-Marg'inoniyning "al-Hidaya" asari tadqiqiga bag'ishlangan<sup>14</sup>.

Yana bir turkum tadqiqotlarda ilk islom tarixida huquqiy masalalarni yechish uslublarining shakllanishi (M. Bedir), mazhablarning paydo bo'lishi (V.Xallaq), shakllanishi va taraqqiyoti (H.Suhayl), mintaqaviy va shaxsiy yondoshuvlarning turli mazhab-maktablarning faoliyatiga ta'siri (J.Burak, V. Xallaq) masalalari o'rganilgan<sup>15</sup>.

Biroq mazkur tadqiqotlarda mamlakatimiz hududida shakllangan va o'z faoliyati bilan fiqh ilmi rivojiga hissa qo'shgan mintaqaviy maktablar, ularning shakllanish jarayonlari, o'ziga xos xususiyatlari, musulmon dunyosida fiqh ilmi rivojiga ko'rsatgan ta'siri masalalarini o'rganish maqsad qilinmagan. Shuning uchun ham o'rta asrlarda o'z o'rniga va o'ziga xos xususiyatiga ega bo'lgan, islom ilmlari, jumladan fiqh ilmi rivojiga katta hissa qo'shgan Farg'ona fiqh maktabi tarixini tadqiq qilish alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya O'zR FA Sharqshunoslik institutining "Markaziy Osiyo olimlarining islom ilmlariga oid yozma merosi tarjima va tadqiqi" ilmiy mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** IX-XIII asrlarda islom ilmlari sohasida yaratilgan ilmiy meros asosida Farg'ona vodiysida shakllangan ilmiy markazning o'ziga xos jihatlari, maktab vakillarining islom ilmlari rivojiga qo'shgan hissalarini, manbalari

---

<sup>12</sup> Al-Muntakhab fi Usul al-Madhhab Also known as (al-Muntakhab al-Husami) by Muhammad bin U'mar, Husam al-Din al-Akhsikathi (d/644H/1247 AD) analytic study end edition Ahmad MN Abbas. Submitted to the University of Wales in Fulfilment of the Requirements of the Degree of Doctor of Philosophy. – University of Wales, Lampeter, 2001.

<sup>13</sup>The translation of financial terms between English and Arabic, with particular reference to Islamic banking. Khalid Omar al-Saleem. School of Humanities, Languages and Social Sciences University of Salford, Salford, UK Ph.D. Thesis. Submitted in Partial Fulfilment of the Requirements of the Degree of Doctor of Philosophy. May 2013.

<sup>14</sup> Meron, Ya'akov. "Marghīnānī, His Method and His Legacy". Islamic Law and Society, 9.3 (2002): 410-16; Theory of Early Classical Hanafism: Authority, Rationality and Tradition in the Hidayah of Burhan ad-Din Ali Abi Bakr al-Marginani (d.593/1197). Sohail Hanif St. Antonys College University of Oxford, UK. Thesis. Submitted for the Degree of Doctor of Philosophy in Oriental Studies. Michaelmas. 2017.

<sup>15</sup>"Considerations on the Function and Character of Sunnī Legal Theory". Journal of the American Oriental Society, 104.4 (1984): 679-89.; "From Fatwās to Furū': Growth and Change in Islamic Substantive Law". Islamic Law and Society, 1.1 (1994): 29-65.; Melchert, Christopher. The Formation of the Sunni Schools of Law, 9th-10th Centuries C.E. Leiden: Brill, 1997.; Bedir, Murteza. "The Early Development of Ḥanafī Uṣūl al-Fiqh". PhD diss., University of Manchester, 1999.; "From Regional to Personal Schools of Law? A Reevaluation". Islamic Law and Society, 8.1 (2001): 1-26.; Hallaq, Wael B. Authority, Continuity, and Change in Islamic Law. Cambridge: Cambridge University Press, 2004.; Hanif, Sohail. "Sixth-Century Ḥanafī Fatāwā Literature and the Consolidation of School Identity". MSt diss., University of Oxford, 2013.; Burak, G. "Madhhab." In The [Oxford] Encyclopedia of Islam and Law. Oxford Islamic Studies Online. Jun 19, 2022. <http://www.oxfordislamicstudies.com/article/opr/t349/e0094>.

va xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Musulmon dunyosida mintaqaviy fiqh maktablari shakllanishi tarixini tadqiq qilish va umumiy xulosalar berish;

Farg‘ona fiqh maktabining shakllanishida tarixiy madaniy shart sharoitlarning ahamiyati, bu omillar vositasida erishilgan natijalarni yoritib berish;

Farg‘ona vodiysida o‘rta asrlardagi ilmiy muhitning hududlar bo‘yicha o‘ziga hos jihatlarini tadqiq qilish;

maktab vakillari ilmiy merosining islom ilmlari sohalari bo‘yicha ilmlar rivojiga qo‘shgan hissalarini asoslab berish;

IX-XIII asrlarda Farg‘ona fiqh maktabi vakillari yozma merosini tasnif va tadqiq qilish;

maktab vakillarining hanafiy fiqhi rivojiga ta’siri hamda musulmon dunyosida hanafiy mazhabi nufuzini ortishidagi o‘rnini ochib berish;

Farg‘ona vodiysida asrlar davomida hanafiy mazhabining barqaror ustuvor bo‘lganligining asos va omillarini tadqiq etish va asoslab berish.

**Tadqiqotning ob’ekti** musulmon dunyosida mintaqaviy fiqh maktablarining shakllanish tarixi va faoliyati hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** Farg‘ona fiqh maktabining shakllanishi va mintaq tarixi va islom ilmlari rivojidadagi o‘rni tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** IX-XIII asrlarda Farg‘ona vodiysi mintaqasida fiqh maktabi shakllanishi va taraqqiyotining sabab va omillarini o‘rganishda mikrotarix (*microhistory*), prosopografik (*prosopography*), qiyosiy tahlil (*somparative analysis*) va statistik tahlil (*statistical analysis*) kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Fiqhiy manbalarni o‘rganishda hanafiy ta’limoti asosida yondoshilishi va ularning boshqa fiqhiy mazhablar talqinidan farqli jihatlaridan amaliyotda foydalanish, Farg‘ona fiqh maktabining asrlar davomida hanafiy fiqhidan og‘ishmay, sobitqadam qolganligi va hanafiy mazhabining ustuvor g‘oyalarini boshqa musulmon davlatlarida ham mustahkamlanishidagi xizmatlari dalillangan;

Farg‘ona fiqh maktabi olimlarining fiqh ilmi sohasidagi xizmatlari natijasi o‘laroq mintaqada turli oqim va guruhlar ta’siriga o‘rin qolmaganida, hanafiy ta’limotining ahli sunna va-l-jamoaning boshqa mazxablaridan ham ustuvor insonparvarlik g‘oyalarini himoya qilishda maktab allomalarining o‘rni isbotlab berilgan;

o‘rta asrlarda shakllangan va islom ilmlari rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Farg‘ona fiqh maktabi shakllanishiga islom ilmlarining turli yo‘nalishlarida faoliyat yuritgan 60 dan ortiq allomalar va ularning 50 dan ortiq asarlari asos bo‘lganligi aniqlangan;

o‘rta asrlarda Farg‘ona fiqh maktabidan yetishib chiqqan faqihlar, ularning ilmiy merosi xususiyatlari, mintaqada shakllangan fiqhiy qarashlarning soha rivojidadagi ta’siri, maktab vakillarining hanafiy ta’limotining mustahkamlanishidagi o‘rnini tadqiqi natijasida Farg‘ona fiqh maktabi tushunchasi ilk bor tarix ilmiga kiritilgan;

Farg‘ona fiqh maktabi doirasida yozilgan asarlarda fiqhiy masalalarda hanafiy mazhabi qoidalarini ahli sunnaning boshqa mazhablari (masalan molikiy va shofe‘iy mazhablari) bilan qiyoslash uslubi ishlab chiqilingani, buning natijasida musulmonlar jamiyati manfaatlarini ifoda etuvchi hanafiy mazhabi tamoyillari ustuvorligini ta‘minlashga erishilganligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:** Fiqhiy masalalarni asoslashda hanafiy ta‘limoti negizida yondoshilishi, ularni boshqa fiqhiy mazhablardan ustivorligini isbotlanishi natijasida mintaqada hanafiy mazhabinig yagona mazyab bulib qolishiga erishilgani ochib berilgan;

Maktab olimlari ilmiy merosining mintaqada turli oqim va guruhlar ta‘siriga o‘rin qoldirmaganlikdagi roli, hanafiy ta‘limotining insonparvarlik g‘oyalarini himoya qilishda hattoki bugangi kunda ham asosiy manbalar bo‘lib qolayotgani isbotlangan;

O‘rta asrlarda Fargona fiqh maktabi doirasida islom ilmlarining turli yo‘nalishlarida faoliyat yuritgan 60 dan ortiq allomalarning nomlari va ularning 50 dan ortiq asarlari aniqlangan;

O‘rta asrlarda mintaqadagi rivojlangan ilmiy – madaniy muhit, bu erdan etishib chiqqan faqihlar, ularning ilmiy salohiyati va ilmiy qarashlarning soha rivojiga ta‘siri, hamda hanafiy mazhabining mustahkamlanishidagi o‘rnini natijasida Farg‘ona fiqh maktabi shakllangani va o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgani asoslangan;

Farg‘ona fiqh maktabi olimlari tomonidan hanafiy ta‘limotida qabul qilingan qoidalarni ahli sunna mazhablari, jumladan molikiy va shofeiy mazhablari mezomlari bilan qiyosiy o‘rganish uslubi ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilingani dalillangan;

Maktab vakillarining musulmon arab, hamda Osiyodagi musulmon mamlakatlarida hanafiy ta‘limoti rivojaga qoshgan amaliy (masalan, A‘louddin al-Kosoniyning Shomda) hamda ilmiy (masalan, Burhonuddin al-Marginoniy asarlarining Pokistonda) xizmatlari aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** Farg‘ona fiqh maktabining shakllanishi va bu maktab vakillarining islom ilmlari rivojidagi o‘rni mavzusi mamlakatimizda va xorijiy davlatlar qo‘lyozmalar xazinalarida saqlanayotgan yozma manbalar asosida tadqiq etilgani, obyektivlik tamoyili asosida sharq va g‘arb manbashunoslik maktablarida shakllantirilgan usullardan foydalanilganligi, xulosalar chiqarishda nodir qo‘lyozma manbalar matniga tayanilgani, hamda ilmiy ish xulosalari va tavsiyalari amaliyotda sinovdan o‘tganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘rta Osiyoda islom ilmlari rivojida muhim o‘rin tutgan mahalliy maktablar tarixiga metodologik yondashuvlar hamda mintaqa diniy ma‘naviy rivojida mahalliy markazlarning o‘rni masalasida nazariy xulosalarni mukammallashtirishda foydalanish imkoniyati bilan izohlanadi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekistonda davlatchilik tarixida mintaqaviy maktablarning roli, maktab vakillari ilmiy merosini milliy tafakkur va ma‘naviyatni yuksaltirishga bag‘ishlangan maqsadli davlat dasturlarini

bajarilishini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Farg‘ona fiqh maktabi tarixini tadqiqi bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Fiqhiy manbalarni o‘rganishda hanafiy ta’limoti asosida yondoshilishi va ularning boshqa fiqhiy mazhablar talqinidan farqli jihatlari hamda ulardan amaliyotda foydalanish, Farg‘ona fiqh maktabining asrlar davomida hanafiy fiqhidan og‘ishmay, sobitqadam qolganligi va hanafiy mazhabining ustuvor g‘oyalarini boshqa musulmon davlatlarida ham mustahkamlanishidagi xizmatlarini dalillanganiga oid ilmiy xulosalar Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining (buyurtma asosida tayyorlangan) “O‘rta asr sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy-falsafiy merosi” nomli kitobini tayyorlashda foydalanilgan (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023 yil 16 martdagi 02/120-son dalolatnomasi). Natijada mutaxassislar va kitobxonlarning allomalarimiz hayot va faoliyati, ilmiy merosi va hanafiy mazhabining mamlakatimiz ijtimoiy hayotidagi tutgan o‘rni haqida yangi ma’lumotlar olishlariga xizmat qilgan.

Mamlakatimiz hududida o‘rta asrlarda shakllangan va samarali faoliyat yuritib islom ilmlari rivojiga ulkan hissa qo‘shgan hududiy maktablar tarixi islomshunoslik ilmida mutlaqo o‘rganilmagan sohalardan biridir. Mazkur dissertatsiya bu yo‘nalishdagi dastlabki yirik tadqiqot bo‘lib, olim unda Farg‘ona fiqh maktabi tushunchasini ilk bor tarix ilmiga olib kirishga muvaffaq bo‘ldi. Tadqiqotning Farg‘ona fiqh maktabi olimlarining fiqh ilmi sohasidagi xizmatlari natijasi o‘laroq mintaqa asrlar davomida hanafiy mazhabidan og‘ishmay kelishi, Farg‘ona mintaqasida turli oqim va guruhlar ta’siriga o‘rin qolmaganida ularning hissasi, hanafiy ta’limotining ahli sunna va-l-jamoaning boshqa mazhablaridan ham ustuvor insonparvarlik g‘oyalarini himoya qilishdagi sobit qadamligi, hamda hanafiy mazhabi nufuzining boshqa musulmon mamlakatlarida oshib borishida maktab allomalarining o‘rni isbotlab berilgani, meros masalasini hanafiy mazhabi doirasida hal qilish me’yorlari va o‘rta asr qo‘lyozma manbalari bilan ishlashning metodologik xususiyatlari haqidagi ilmiy asoslangan xulosalaridan O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi “Islom tarixi va manbashunosligi” kafedresi, hamda akademiya huzuridagi Malaka oshirish markazi va uning mintaqaviy filiallarida davlat va jamoat tashkilotlari uchun tashkil etilgan malaka oshirish kurslari o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda foydalanildi. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 2023 yil 28 noyabrdagi 02-02/584-son dalolatnomasi). Natijada qo‘lga kiritilgan ilmiy yangiliklar mahalliy maktablar vakillarining mintaqada hanafiy mazhabi ustuvorligini ta’minlashdagi xizmatlarini asl manbalar asosida yoritish va ularning rasmiy internet saytlarida foydalanish, hamda tadqiqotning ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalaridan diniy – ma’rifiy ta’lim muassasalari uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishda keng foydalanish imkonini bergan.

O‘rta asrlarda Farg‘ona fiqh maktabidan yetishib chiqqan faqihlar, ularning ilmiy merosi xususiyatlariga oid ma’lumotlar, mintaqada shakllangan fiqhiy qarashlarning soha rivojidadagi ta’siri, maktab vakillarining islom dunyosida hanafiy

mazhabining mustahkamlanishidagi o‘rni xususidagi ilmiy xulosalaridan Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazida o‘rta asr manbalaridan “Chor kitob”, “al-Fiqh al-akbar”, “Sunani Termiziy sharhi” kabi asarlarni nashrga tayyorlashda, hamda “Ixtilofli masalalarning yechimlari” (Soxta salafiylarga raddiyalar) kitobini yaratishda foydalanilgan. (Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023 yil 16 oktyabrdagi 01-07/197 – son dalolatnomasi). Natijada tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalarda xalqaro ilmiy tadqiqot markazi faoliyati konsepsiyasini shakllantirishda tayanilgan, hamda kelgusida fiqhiy maktablar tarixiga oid tadqiqotlar, ilmiy to‘plam va kitoblarni boyitishda qo‘shimcha manba sifatida foydalanish ko‘zda tutilgan.

Farg‘ona fiqh maktabi tarixi, fiqh ilmining amaliy va nazariy, fatvo yo‘nalishlarida faoliyat yuritgan Burhonuddin al-Marg‘inoniy, Faxruddin Qozixon, Xusomuddin al-Axsikatiy kabi allomalar ilmiy merosi, islom ilmlari rivojiga qo‘shgan hissasi, mintaqaviy maktabning vujudga kelishidagi o‘rni, maktabning o‘ziga xos jihatlari borasidagi ilmiy xulosalardan “O‘zbekiston-24” telekanalining “Islom sivilizatsiyasi markazi: shonli tarixdan buyuk kelajak sari”, “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Aslida qanday”, “Mavzu” dasturi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023 yil 28 noyabr 06-28-1780 son ma‘lumotnomasi). Mazkur ko‘rsatuvlar xalqimizni mamlakatimiz hududida faoliyat yuritgan ilmiy maktab faoliyati, maktab vakillari bo‘lgan ajdodlarimiz ilmiy salohiyati va ularning musulmon dunyosida islom ilmlari rivojida tutgan o‘rinlari haqidagi yangi ma‘lumotlardan xabardor bo‘lish, tarixiy bilimlarini oshirish va ajdodlar bilan faxrlanish va ularga munosib avlod bo‘lish tuyg‘usini shakllanishiga xizmat qilgan.

O‘rta asrlarda Farg‘ona vodiysida shakllangan Farg‘ona fiqh maktabi tarixi, maktab vakillarining ilmiy merosi va ularning islom ilmlari rivojidagi o‘rni masalasiga bag‘ishlangan dissertatsiya ishi doirasida ishlab chiqilgan xulosalar, ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2022-2023-yillarda o‘tkazilgan targ‘ibot faoliyatida tatbiq etilgan. Jumladan, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2023-yil uchun chora tadbirlar dasturining VI yo‘nalishida belgilangan “Millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot tadbirlari, aholi o‘rtasida radikalizm illatini oldini olish” 29-bandi, “Jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashgan mutafakkirlar” shiori mavzusida uchrashuvlar o‘tkazishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan. (Respublika manaviyat va ma‘rifat markazining 2023 yil 29 noyabr № 02-22/1323-son dalolatnomasi). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar IX-XIII asrlarda Farg‘ona fiqh maktabi vakillari ilmiy merosi ahamiyatini ochib berishga xizmat qilgan.

Kariyev Adil Axmadjanovichning “Farg‘ona fiqh maktabi olimlarining islom ilmlari rivojidagi o‘rni (IX-XIII asrlar)” mavzusidagi dissertatsiyasi Farg‘ona vodiysi, jumladan hozirgi Namangan viloyatining o‘rta asrlardagi tarixi, Axsikentdan yetishib chiqqan olimlarning hayoti va ilmiy merosini tadqiqiga bag‘ishlangan. Dissertatsiyada keltirilgan ma‘lumotlar ziyorat va tarixiy turizmning rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababdan tadqiqot

natijalaridan Axsikent xalqaro ilmiy tadqiqot jamoat birlashmasi olimlari tomonidan chop etilgan “Buyuklarga beshik bo’lgan Axsikent yoxud Farg’ona allomalari” kitobini tayyorlashda, Farg’ona vodiysidagi qadimgi savdo yo’llari, aholi maskanlari, qo’rg’on va qal’alarning bugungi o’rnini, tarixiy turizm yo’li va maskanlarining turkiycha nomlari va mazmunlarini aniqlash va tarixiy turizm uchun xaritalar yaratishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Namangan shahar “AXSIKENT” xalqaro ilmiy-tadqiqot jamoat birlashmasining 2024 yil 02 may 103 son ma'lumotnomasi). Olingan ilmiy natijalar yoshlar ta’lim tarbiyasida ajdodlarimiz boy ilmiy merosidan keng foydalanish, hamda ularni turli yot g’oyalar ta’siriga berilishini oldini olishda, shu bilan birga viloyatda ziyorat, tarixiy va ilmiy turizmning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqotning asosiy natijalari 15 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 7 ta xorijda o‘tkazilgan anjumanlarda va 8 mamlakatimizda bo‘lib o‘tgan xalqaro va Respublika konferensiyalarida aprobatsiyadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 41 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan 3 ta monografiya, 1 ta manbalar nashri, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta risola. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 20 ta maqola, jumladan, 15 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda e’lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 275 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, o‘rganish obyekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi, ularning nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy ishlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Mintaqaviy maktablarning vujudga kelish jarayoni**» deb nomlangan birinchi bobi Arabiston yarim orolida ilk o‘rta asrlarda islom dinini vujudga kelishiga sabab bo‘lgan ma’naviy, ijtimoiy, siyosiy iqtisodiy vaziyat, ilk islom davrida musulmon jamiyatidagi huquqiy me’yoriy tamoyillarning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va bu jarayonda vujudga kelgan mahalliy va mintaqaviy mazhab va maktablarning tarixiy ildizlari tahliliga bag‘ishlangan.

Islom dini vujudga kelishi arafasida Arabiston yarim oroli Vizantiya va Sosoniylar imperiyasi hukmronligi ostida edi. Har ikki tomon bu hududdan o‘tadigan savdo yo‘llari ustidan nazorat o‘rnatishni maqsad qilgandi. Shu sababdan siyosiy vaziyat Yaman mintaqasini qo‘lga kiritish va karvon yo‘llarida o‘z

hukmronligini o‘rnatish uchun Vizantiya va Sosoniylar o‘rtasidagi raqobat bilan bog‘liq holda edi. Yaman sosoniylar hukmronligi ostidaligi davrida (xij.av.51/572-xij. 6/628) Fors ko‘rfazi orqali Hindistonga boradigan savdo yo‘li tez rivojlanib, Hijoz orqali o‘tgan karvon yo‘li inqirozga uchradi. Bu barcha arab qabilalari hayotiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatib, Arabistonda ijtimoiy-iqtisodiy tanglikni yuzaga keltirdi. Savdodan tushib turgan daromadning kamayib ketishi natijasida quraysh zodagonlari o‘rtasida sudxo‘rlik avj oldi. Makka va boshqa shaharlarda sinfiy qarama-qarshiliklar keskinlashdi.

Ijtimoiy vaziyat esa aholining o‘ziga xos urf odatlari, insonlar turli tabaqalarga bo‘linganligi, ular o‘rtasida teng huquqlik tushunchasi ham, amaliyoti ham yo‘qligi bilan xarakterlanardi. Ma‘naviy-axloqiy muhit esa mintaqada g‘ayri insoniy odatlar (oilada qiz farzandning dunyoga kelishini falokat deb bilish, beva ayolni moddiy huquq va manfaatlari tushunchasi yo‘qligi, ayrim davrlarda hatto ayolga erkakdan qolgan meros mulk sifatida qaralishi)da, hamda, oila va nikoh munosabatlarida (yaqin qarindoshlarning o‘zaro nikoh munosabatlariga kirishlari, opa-singilni bir nikohda jamlash, vafot etgan kishining farzandlari otasidan beva qolgan ayolga uylanishlari) namoyon bo‘lardi.

Diniy e‘tiqod masalasida ham vaziyat murakkab bo‘lib, turli toifalar (Makkada vasaniylar<sup>16</sup>, Yasribda yahudiylar, Najd va Najronda masihiylar) mavjud edi. Makka Arabiston yarim orolining diniy markazi hisoblanib, arablar turli tomonlardan bu yerga Ibrohim payg‘ambar bino qilgan “Bayt al-haram”ga haj ibodatini ado etish uchun kelardilar. Ka‘ba ibodatxonasi undagi qoratosh va uch yuzdan ortiqroq qabila xudolari tufayli bu atrofda yashaydigan ko‘p qabilalar uchun ham diniy markaz bo‘lib hisoblangan. Bundan tashqari Makkada olovga sig‘inuvchi otashparastlar, yulduzlarga ibodat qiluvchi sobi‘iylar, Ibrohim alayhissalomning dini kabi yakka xudoga sig‘inishni ixtiyor qilgan toifalar (haniflar) ham istiqomat qilar edi. Islom dini mana shunday siyosiy, ijtimoiy, diniy-ma‘naviy vaziyatda zohir bo‘ldi. So‘ng mintaqada islom dini yoyilib, aholi turmush tarziga aylanishi natijasida bu ta‘limot talablarini tartibga soluvchi ilm sohalari shakllanishi zaruratini keltirib chiqardi.

Islom ta‘limotining asosiy g‘oya va maqsadlari mohiyatini belgilab berish, hamda islom dini talablarini hayotga tatbiq qilish vositalarini ishlab chiqish zarurati islom ilmlari shakllanishiga sabab bo‘ldi. Bu ilmlar dinning asosiy manbalari Qur‘oni Karim va Payg‘ambar alayhissalomning sunnatlariga asoslandi. Islom ilmlari sirasida fiqh ilmi yetakchi o‘rin tutdi. Islom ilmlarining deyarli barchasiga asoslanadigan fiqh ilmi shakllanishi bir nechta bosqichlardan o‘tdi. Ilmiy adabiyotlarda bu bosqichlarni davriylashtirishning ikki uslubi ustuvor<sup>17</sup>. Birinchi uslubda shariatning vujudga kelish bosqichlari islomiy fikrning shakllanishi va taraqqiyoti tarixi bilan bog‘liq holda davrlarga ajratiladi va birinchi shariat davri<sup>18</sup>, ikkinchi shariat davri<sup>19</sup>, uchinchi shariat davri<sup>20</sup>, to‘rtinchi shariat

<sup>16</sup> Vasaniy (arab) - but-sanamlarga sig‘inuvchilar.

<sup>17</sup> مناع القطان. التشريع الاسلامي. بيروت. ١٩٨٩. ص- ٢٥-٢٦

<sup>18</sup> Muhammad (s.a.v.) arab qabilalarini islomga da‘vat etgan, islomiy qonunlarni e‘lon qilgan va “Xulafo ar-Roshidin”lar davlatni boshqargan bosqich.

<sup>19</sup> Fiqh va kalom ilmiga asos solingan bosqich.

davri<sup>21</sup> va beshinchi shariat davri<sup>22</sup> deb nomlanadi<sup>23</sup>.

Ikkinchi uslubda shariatning paydo bo'lishi, fiqh ilmining vujudga kelishi va taraqqiyoti musulmonlar jamiyatidagi siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlar asosida davrlarga bo'linadi. Shariatning vujudga kelishi davri (xij.av.12/610-10/632) – Muhammad (s.a.v.) ning payg'ambarlik davrlari, birinchi fiqh davri (10/632-40/661) -“Xulafo ar-Roshidin”lar davlatni boshqargan davr, ikkinchi fiqh davri (40/661-132/750) – kichik sahobalar va tobe'inlar hayot bo'lgan davr, uchinchi fiqh davri (142/760-369/980) – hijratning ikkinchi asri birinchi yarmidan to'rtinchi asri o'rtasigacha, to'rtinchi fiqh davri (369/980-658/1260) – hijratning to'rtinchi asri ikkinchi yarmidan A'bbosiylar sulolasi barham topgunga qadar bo'lgan davr, beshinchi fiqh davri (XIII asrdan-hozirgacha) – A'bbosiylar xalifaligi tugatilgandan hozirgi kungacha bo'lgan davr<sup>24</sup> deb nomlanadi. Xronologik nuqtai nazardan har ikki uslubda davrlar bir-biriga deyarli muvofiq kelsa-da, jiddiy farqli tomonlari bor. Birinchidan, dastlabki uslubda Payg'ambar (s.a.v) va “Xulafo ar-Roshidinlar” davri bir davr sifatida belgilangani holda, ikkinchi uslubda bular alohida davrlarga ajratilgan. Ikkinchidan, birinchi uslubda hamma bosqichlar “عهد التشريع” (shariat davri), deb nomlanadi. Ikkinchi uslubda faqat birinchi davr “عهد التشريع” deb atalib, keyingi davrlar-“الدور الفقهي” (fiqh davri) deb nomlangan<sup>25</sup>. Bizning fikrimizcha, Muhammad (s.a.v.) davrlari bilan “Xulafo ar-Roshidinlar” davrini alohida ajratish va dastlabki davrga nisbatangina “ahd at-tashri” atamasini qo'llash o'rinli<sup>26</sup>. Chunki Islom dini an'anasida Payg'ambar (s.a.v)dan keyin ilohiy qonunlar nozil bo'lishi to'xtagan. Shuning uchun uni “shariat davri”, deb atab bo'lmaydi. Bu davrda mavjud shar'iy hukmlarni hayotga tatbiq etish davri - “fiqh davri” boshlangan. Shu bois “shariat davri” va “fiqh davri” mohiyatan bir-biridan farq qiladi.

“Shariat davri” deb nomlangan bosqichda fiqhning faqat ikkita manbasi - Qur'oni karim va Payg'ambar alayhissalomning sunnatlari bo'lgan edi. Shu bois fiqh ilmining asosi poydevori u kishi tomonidan yaratildi va uning istiqboldagi rivoji ana shu poydevor ustiga qurildi.

Fiqh ilmi shakllanishining “birinchi fiqh davri” deb nomlanuvchi ikkinchi bosqichi (10/632-40/661)da jamiyatdagi ichki siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy vaziyat uning rivojlanishi va barqarorligini ta'minlash uchun davlatchilik va qonunchilik tizimini takomillashtirish zaruratini (musulmonlarni Abu Bakr as-Siddiqqa davlat rahbari sifatida bay'at<sup>27</sup> qilishlari) keltirib chiqardi. “Xulafoi roshidin”lar davrida musulmon jamiyatida vujudga kelayotgan barcha savollarga Qur'oni Karim va sunnatdan to'g'ridan to'g'ri javob topish mumkin emasligi ayon bo'la boshladi.

<sup>20</sup> Fiqh ilmi rivoji va mazhablar vujudga kelib, sunnatni va fiqhni yozma holga keltirish bosqichi.

<sup>21</sup> Ijtihod davri tugagan va fiqhning mavjud mazhablar doirasida rivojlangan davri yoki taqlid bosqichi.

<sup>22</sup> Fiqh ilmining uyg'onishi va islohotlar bosqichi.

<sup>23</sup> مناع القطان. التشريع الاسلامي. بيروت. 1989. ص-32

<sup>24</sup> O'sha asar. – B. 25-26.

<sup>25</sup> محمد الخضري. تأريخ التشريع الاسلامي-بيروت-1995. ص-5

<sup>26</sup> O'sha asar. – B. 30.

<sup>27</sup> “Bay'at” (arab) - lug'aviy ma'nosi oldi-sotdi qilish. Shariat istilohida esa, musulmonlarning Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga itoat haqida bergan ahdnomalarini ifoda qiladi. Bu ahdnoma ahd beruvchining Payg'ambar alayhissalomga itoati evaziga savobni sotib olish ma'nosi borligidan «bay'at» deb ataladi. Keyinchalik xalifalarga ham bay'at qilish odatga aylangan.

Natijada ikki asosiy manbada javobi bo‘lmagan savollarga sahobalar fikri asosida hukm chiqarish uslubi ijmo<sup>28</sup> instituti shakllandi. Ijmo vositasida ham yechimi topilmagan masalalarga uni sahobalarning ijtihodlari yordamida mavjud fatvolar bilan qiyoslab javob topish yo‘li qiyos<sup>29</sup> usuli joriy qilindi. U keyinchalik fiqh ilmining to‘rtinchi asosiy manbasi (asli)ga aylandi. Birinchi fiqh davri fiqhning asosiy manbalari shakllanganligi bilan xarakterlandi.

Fiqh ilmi rivoji davrlari orasida uchinchi bosqichning alohida o‘rni bor. Sababi, fiqh ilmi tarixida alohida o‘rin tutgan sahoba va tobe’inlar shu davrda faoliyat yuritgan<sup>30</sup>. Ikkinchi fiqh davrida islom dunyosining xavorijlar, shiy’alar va ahli sunnat jamoalariga bo‘linib ketishi. bu ilmning shakllanishi va rivojlanishi jarayoniga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi (har uch jamoa doirasida fiqh ilmining bir-biridan farqli, ko‘p hollarda bir-biriga zid ko‘rsatmalar ishlab chiqildi, murakkab siyosiy vaziyatda ko‘plab ustoz ulamolar, jumladan sahobalar Madinadan ko‘chib ketishga majbur bo‘ldilar, yolg‘on va to‘qima hadislar ko‘payib, to‘g‘ri hadislarni saralab, tekshirish zarurati tug‘ildi). Demak, fiqh ilmi shakllanishining uchinchi davrida fatvo chiqarish uslublariga ko‘ra ahl al-hadis va ahl ar-ra’y toifalariga ajraganlari, fiqh ilmining qonun qoidalarini ishlab chiqish, tartibga solib yozma shaklga keltirish jarayoni davom etganligi kuzatiladi.

Fiqh ilmi shakllanishining to‘rtinchi davri uchinchi fiqh davri (taxminan 142/760–369/980) musulmon dunyosining turli mintaqalarida qurilgan yangi shaharlar (Andalusiya Qurtuba (Kordoba), Afrikada al-Qayruvan, Misrda al-Fustat (bu shaharning eng katta masjidida ijtihod va istinbot bobida o‘chmas iz qoldirgan islom ilmlari ulamolari davralari faoliyat olib borgan) hamda avvaldan ilm markazlari bo‘lib kelgan (Dimashq, Basra, Kufa) shaharlardagi taraqqiyotning yangi darajalarga ko‘tardi. Qur’oni Karimning bilimdonlari (Madinada<sup>31</sup>, Makkada<sup>32</sup> va boshqa shaharlarda faoliyat yuritgan hofizi Qur’onlar)ning xizmati tufayli qiroat ilmining vujudga kelishi, sunnatni qog‘ozga tushirilishi (Molik ibn Anasning “Muvatto” asari)<sup>33</sup> keyinchalik “Musnad” janridagi asarlar<sup>34</sup> va sahih hadislar to‘plamlari yaratilishi orqali hadis ilmini paydo bo‘lishi fiqh ilmi rivojiga yangi turtki berdi. Bu bosqichidagi sahoba va tobe’inlarning faoliyati mazhablar vujudga kelishining boshlang‘ich davri edi.

Dastlabki mazhablar musulmon jamiyatida yuzaga kelgan savollarga javob berish, shariat mezonlari doirasida umr kechirishni ta’minlash zaruratidan vujudga

---

<sup>28</sup> Ijmo (arab) - yakdillik, diniy masalalarda yakdillik bilan qabul qilingan qaror. Istilohda Qur’oni Karim va hadis sharifda aniq javobi bo‘lmagan huquqiy masala yuzasidan yagona fikrga kelgan holda hukm chiqarish. Fiqh ilmining uchinchi manbasi.

<sup>29</sup> Qiyos (arab) – o‘lchash, taqqoslash. Istilohda fiqhning avvalgi manbalarda hukmi kelmagan masalani mazkur manbalarda hukmi bor shunga o‘xshash narsaga qiyoslab hukm chiqarish. Fiqh ilmining to‘rtinchi manbasi.

<sup>30</sup> ۲۳۵-۵۶ ص. 1989 - بيروت - التشريع الاسلامي- بيروت

<sup>31</sup> Nofe’ ibn Abdurrahmon Abi Na’im al-Laysiy al-Madiny (46/689-139/785). Imom, Qur’on ilmi bilimdoni, o‘nta mashhur qorilardan biri. Duosi mustajob insonlardan bo‘lgan. 139/785 yilda Madinada vafot etgan.

<sup>32</sup> A’bdulloh ibn Kasir ibn Amr ibn A’bdulloh ibn Zadan ibn Feyruz ibn Harmuz al-Makkiy. (23/665-93/737). O‘nta mashhur qorilardan biri. A’bdulloh ibn az-Zubayr va U’mar ibn Abdulaziz va boshqalardan hadis rivoyat qilgan.

<sup>33</sup> Dastlab bitilgan sunnatga oid kitoblarda hadislar bilan sahoba va tobe’inlarning aytgan gaplari ham aralastirib yuborilgan edi

<sup>34</sup> Musnad asarlarda har bir sahobadan rivoyat qilingan hadislar alohida-alohida tartib bilan keltirilgan. Bu janrdagi asarlardan bizning davrimizgacha Ahmad ibn Hanbalning “Musnad”i yetib kelgan.

kelgan. Natijada ilmiy salohiyati va shaxsiyati muayyan talablarga javob bergan faqihlarning (duo - Ali ibn Abu Tolib<sup>35</sup> va Ibn A'bbos voqealari<sup>36</sup>, ijoza - sahobalarga qozilik, fatvo chiqarish va ta'lim berish vazifasining yuklatilishi<sup>37</sup>, guvohlik - Payg'ambar alayhissalom bir qator sahobalar haqida guvohlik berganlari<sup>38</sup>) o'z ijtihod uslubiga asoslangan yo'nalishlari, ya'ni mazhablari (jumladan, U'mar ibn al-Xattob mazhabi, Ali ibn Abu Tolib mazhabi, Abu Hurayra mazhabi, Oysha binti Abu Bakr mazhabi, Zayd ibn Sobit mazhabi, Ibn A'bbos, Ibn U'mar, Ibn Mas'ud mazhabi va h.z.) shakllandi<sup>39</sup>. Ilk islom davrida bunday mazhablarning soni bir necha yuztani tashkil qilgan. Keyinchalik eng kuchli fiqhiy mazhablar negizida mintaqaviy maktablar shakllangan.

O'rta asrlarda fiqhiy maktablar atamasi bu ilmning istiqbollari belgilab beradigan, ilmiy va amaliy faoliyat olib boradigan olimlar jamlangan makon ma'nosini anglatgan. Fiqh maktabning mohiyati - musulmon jamiyatida paydo bo'ladigan huquqiy muammolarga asl manbalarga tayangan holda yechim topish, huquqiy me'yorlarni ishlab chiqib, ularni sharhlab, asoslab berishdan iborat bo'lgan. Dastlab bu vazifa faqih sahobalar yordamida hal qilingan bo'lsa, tobe'inlar davrida ular asos solgan mintaqaviy maktablar vakolati doirasiga o'tdi. O'z navbatida fiqhiy maktabning shakllanishi uchun zarur shartlar belgilandi. Bunday shartlardan biri shu hududda yashab faoliyat yuritadigan mujtahidlarning mavjud bo'lishi talabi edi. Shuning uchun ham dastlabki fiqhiy maktablar bunday mujtahidlari bo'lgan Hijozda (Madina maktabi, bu maktabni fiqhiy maktablar onasi deb ham ataladi. Maktab Zayd ibn Sobitning<sup>40</sup> fiqhiy uslubiga asoslangan. U ilmni Madinada Payg'ambar alayhissalomning o'zlaridan olgan. Abu Bakr as-Siddiq va U'mar ibn al-Xattob xalifalik davrida Qur'oni Karimni jamlashda asosiy o'rin tutgan. U'smon ibn Affon davrida Madina mushafiga qori etib tayinlangan. Madina ahliga va bu yerga fatvo so'rab kelganlarga fatvo bergan.

---

<sup>35</sup> Rivoyat qilinishicha Payg'ambar alayhissalom Ali ibn Abu Tolibni Yamanga yuborishlarini aytganlar. Ali "Yo Rasululloh man bir yosh bola bo'lsam. Katta yoshdagi odamlar orasiga mani yuborasizmi? Ularni orasida qozilik qilishga mani ilmim bo'lmasa" deganlar. Shunda Payg'ambar alayhissalom: "Yo'lga chiqaver Alloh azza va jalla o'zi qalbingni to'g'ri yo'lga yo'naltirib, so'zlaringni o'tkir qilib qo'yadi"-deb tinchlantirganlar. Hazrati Ali "Xudo haqqi shundan keyin hech narsadan hayiqmadim"- deganlari zikr qilinadi.

<sup>36</sup> Payg'ambar alayhissalom Ibn A'bbosni ham "Allohim uni dinda faqih qilib, Qur'on ta'vilini bildirib qo'yg'in" deb duo qilganlari zikr qilinadi. Chindan ham Ibn A'bbos eng bilimdon faqih va mufassir deb e'tirof etiladigan sahoba sifatida tarihdan qolgan.

<sup>37</sup> Ijoza an'anasi islom ilmlarini o'zlashtirish so'ngra shu ilm sohasida ta'lim berishga ruxsat etish ma'nosida bugungi kunimizda ham amal qiladi. Bu uslub aslida Payg'ambar alayhissalom tomonlaridan joriy qilingan.

<sup>38</sup> Anasdan rivoyat qilingan hadisda Payg'ambar alayhissalom: "Ummatimning orasida ummatimga eng mehribon Abu Bakr, dinga muhabbatda eng ashaddiyi U'mar, eng hayolisi U'smon, halol-haromni eng yaxshi biluvchisi Muoz ibn Jabal, Alloh azza va jallaning kitobini eng ko'p o'quvchisi Ubay, meros ilmini eng yaxshi biluvchisi Zayd ibn Sobit, har bir ummatning eng ishonchli kishisi bo'ladi bu ummatning eng ishonchlisi Abu Ubayda ibn al-Jarroh" - deganlari aytilgan.

<sup>39</sup> Bu mazhablarni islom dunyosida alohida ilmiy-huquqiy institutlarga aylanib, asrlar davomida faoliyat yuritib kelayotgan umume'tirof etilgan to'rtta ahli sunna mazhabi va to'rtta ahli shi'a mazhabi bilan aralashtrimaslik kerak. Chunki o'z davrida mazhab so'zi u yoki bu sahobaning fiqhiy masalada yechim topish uslubi va yo'nalishini anglatgan.

<sup>40</sup> Zayd ibn Sobit al-Xazrajy an-Najjoriy al-Madaniy al-Ansoriy (hij.av.7/615-44/665) mashhur sahoba. Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning xos kotiblaridan biri bo'lgan. U Payg'ambar alayhissalomning tavsiyalari bilan ibroniy va suryoniy tilini o'rgangan va Muhammad alayhissalomning shaxsiy tarjimonlari bo'lgan. Qur'oni Karimni hammasini yodlab, Rasululloh (s.a.v.)dan o'tkazib chiqqan edi. Sahobalar orasida faroiz - meros huquqining eng bilimdoni hisoblangan. Hazrati U'smon davrida xazinabon va qozilik qilgan.

Maktabning shakllanishi va faoliyatida Oisha, Abu Hurayra, tobe'inlardan Sa'id ibn Musayyab al-Maxzumiy<sup>41</sup>, Urva ibn az-Zubayr ibn Avvom al-Asadiy<sup>42</sup>, Muhammad ibn Muslim ibn Shihob az-Zuhriylar<sup>43</sup> katta hissa qo'shganlar<sup>44</sup>), Makkada (Makka maktabi A'bdulloh ibn A'bbos yo'nalishiga asoslangan. A'bdulloh ibn A'bbos nafaqat ilmni Payg'ambar alayhissalomning o'zlaridan olgan, balki u zotdan ilmda peshqadam bo'lishlik duosini ham olgan<sup>45</sup>. U'mar ibn al-Xattob qiyin masalalarni yechishda uning fikrini<sup>46</sup> muhojir, ansor, ahli Badrlardan<sup>47</sup> ham ustun qo'ygan), Iroqda (Kufa fiqh maktabi - A'bdulloh ibn Mas'udning fiqhiy uslubiga asoslangan. Maktabning nufuzi va maqomini bu yerga xalifa U'smon davrida ko'chib o'tgan ko'plab sahobalarning xizmatlari belgilaydi. Qator iroqlik faqihlar ilmni ulardan oldilar. Alqama ibn Qays an-Naxa'iy<sup>48</sup>, al-Asvad ibn Yazid an-Naxa'iy<sup>49</sup>, Abu Maysara Amr ibn Sharahil al-Hamadoniy<sup>50</sup>, Masruq ibn al-Ajda' al-Hamadoniy, Ubayda as-Salmoniy<sup>51</sup>, Shurayh ibn al-Horis

---

<sup>41</sup> Sa'id ibn Musayyab al-Maxzumiy (14/636-94/713)-madinalik tobe'in. Faqih, muhaddis. Madina ahlining olimi, tobe'inlarning sayyidi nomiga muyassar bo'lgan. Madinalik tobe'inlardan bo'lgan yetti faqihlarning biri. Hadis roviysi. Zayd ibn Sobitning shogirdi U kuchli diyonatli, haqgo'y inson bo'lgan. Qatoda: "Sa'id ibn Musayyabdan ko'ra ilmliroq biror kishini ko'rmadim" degani rivoyat qilinadi.

<sup>42</sup> Urva ibn az-Zubayr ibn Avvom al-Asadiy (23/644-94/713) - tobe'in, faqih, muhaddis, madinalik yetti tobe'in faqihlarning biri. Xolasi Oyshadan ko'plab hadis rivoyat qilgan. Hadislarni qog'ozga tushirishda g'ayrat qilganlardan biri. Islom tarixini yozgan dastlabki musulmon muarrixlardan.

<sup>43</sup> Muhammad ibn Muslim ibn A'bdulloh ibn Shihob az-Zuhriy (58/678-124/742) taniqli hadisshunos olim, hadislarning ishonchli roviysi. Tobe'inlardan bo'lgan. Hadislarni ilk bor kitob holiga keltirgan.

<sup>44</sup> Sahobalar davrida fiqh ilmi sohasidagi faoliyat hali maxsus maktablar sifatida ta'riflanmagan. Chunki sahobalarning har birlari o'zlari alohida maktab darajasidagi ilm sohiblari edi.

<sup>45</sup> Va yana: "Rasululloh (s.a.v.) mening haqimga Allohdan hikmat berishini so'rab ikki marta ketma-ket duo qildilar" (at-Termiziy rivoyati); "Nabiy (s.a.v.) xaloga kirdilar. Men u zotga tahorat suvi qo'yib qo'ydim. U zot chiqqanlarida: "Buni kim qo'ydi?" deb so'radilar. "Ibn A'bbos", dedim. "Ey Alloh! Uni faqih qilgin!" dedilar u zot". (Muslim rivoyat qilgan). A'bdulloh ibn A'bbos Payg'ambar (s.a.v.) unga qilgan duolari mustajob bo'lgan zotdir. U eng ko'p hadis rivoyat qilgan sahobalarning beshinchisi bo'lgan.

<sup>46</sup> Imom al-Buxoriy A'bdulloh ibn A'bbos (r.a.)dan quyidagi rivoyatni keltirgan: "U'mar meni Badr shayxlari qatoriga qo'shar, ayrimlariga bu yoqmas edi. Bir kuni o'shalar unga "Nima uchun bolamiz tengini bizga qo'shasan?!" dedilar. U esa: "U o'zingiz bilgan odam!" dedi. U meni ularga qo'shar ekan, bu ishni mening kimligimni ularga bildirib qo'yish uchun qilganini bilib turardim. Keyin U'mar: "Alloh taoloning "Iza jaa'a nasrullohi val fathu" degan oyatiga nima deysizlar?" dedi. Ulardan ba'zilari: "Qachon bizga nusrat yoki fath bersa, Allohga hamd va istig'for aytishga amr qilindik-deymiz", dedilar. Ba'zilari esa, sukut saqlab, biror narsa, demadilar. Shunda u menga: "Sen ham shundoq deysanmi, ey Ibn A'bbos?!" dedi. Men: "Yo'q", dedim. U: "Nima deysan?" dedi. Men: "Bu-Rasululloh (s.a.v.)ning ajallaridir. Alloh buni u zotga bildirdi. "Agar Allohning nusрати va fath kelsa" o'sha ajalning alomatidir. Alloh taolo: "Bas, Robbingni poklab yod et va Unga istig'for ayt. Albatta, U tavbalarni ko'plab qabul qiluvchidir", dedi", dedim. Shunda U'mar: "Allohga qasamki, men ham bu borada faqat sen aytgan narsanigina bilaman, xolos", dedi.

<sup>47</sup> Ahli Badr (arab) – Badr ahli, mushriklar bilan 2/624 yilda birinchi yirik jangda ishtirok etgan musudmonlar.

<sup>48</sup> Alqama ibn Qays an-Naxa'iy - Alqama ibn Qays ibn A'bdulloh ibn Molik ibn Alqama an-Naxa'iy (vaf. 61/681) qori, faqih. Payg'ambar alayhissalomga hamzamon bo'lgan, lekin u zot bilan uchrashmagan. U'mar ibn al-Xattob, U'smon ibn Affon, A'li ibn Abu Tolib, Abu ad-Dardo, Salmon al-Forsiy kabi va boshqa ko'plab sahobalardan hadis rivoyat qilgan.

<sup>49</sup> Al-Asvad ibn Yazid an-Naxa'iy – Abu Amr al-Asvad ibn Yazid an-Naxa'iy (vaf. 75/695) Kufalik tobe'in. Asli yamanlik, johiliyat davrida tug'ilgan bo'lsa ham, Muhammad alayhissalom bilan uchrashmagan. U zot haqlarida ustozu Mu'oz ibn Jabaldan eshitgan. Payg'ambar alayhissalom hadislari roviylaridan biri. U hadislarni Bilol ibn Raboh, Oysha, A'bdulloh ibn Mas'ud kabi va boshqa ko'plab sahobalardan rivoyat qilgan. Hofiz Qur'on bo'lib A'bdulloh ibn Mas'uddan ta'lim olgan. Kufada vafot etgan.

<sup>50</sup> Abu Maysara Amr ibn Shurahbil al-Hamadoniy – Abu Maysara Amr ibn Shurahbil al-Hamadoniy al-Kufiy (vaf. 63/683) birinchi tabaqa tobe'inlardan bo'lgan muhaddis. U'mar ibn al-Xattob, A'li ibn Abu Tolib, A'bdulloh ibn Mas'ud kabi va boshqa ko'plab sahobalardan hadis rivoyat qilgan.

<sup>51</sup> U'bayda as-Salmoniy – U'bayda ibn Amr as-Salmoniy al-Murodiy al-Kufiy. Kufalik faqih tobe'inlardan. Makka fath qilingan yili Yamanda islomga kirgan. Hadis va fiqh ilmlari bilimdoni. Ilmni Ali ibn Abu Tolib, A'bdulloh ibn Mas'ud va boshqalardan olgan.

al-Kindiy<sup>52</sup>, Ibrohim an-Naxa'iy<sup>53</sup> kabi tobe'inlar faoliyat yuritgan), Basrada (Basra fiqh maktabini Abu Muso al-Ash'ariy<sup>54</sup> boshliq ustozlar yaratganlar. Bu ishda Anas ibn Molik Ibn Nazr al-Ansoriy<sup>55</sup>, tobe'inlar al-Hasan al-Basriy<sup>56</sup>, Muhammad ibn Sirrin, Abu-l-Oliya Rufi' ibn Mehron ar-Riyohiy<sup>57</sup>, Hasan ibn Abu-l-Hasan Yasar<sup>58</sup>, Abu Sha'so Jobir ibn Zayd<sup>59</sup>, Qatoda ibn Di'oma as-Sadusiylar samarali xizmat qilganlar) va Shomda (Shom maktabi shakllanishida Muoz ibn Jabal, Uboda va Abu Dardolar faoliyati asos bo'lgan. Shom maktabidan Abu Idris al-Xavloniy, Makhul ibn Abu Muslim ad-Dimashqiy, U'mar ibn Abdulaziz, Rajo ibn Hayva al-Kindiy kabi ilm sohiblari yetishib chiqdilar. Ularning eng kattasi Abdurrahman Avzo'iy edi. U kishi Baalbakda tug'ilib, Dimashq va Bayrutda yashagan. Shom ahli Avzo'iyini «Imom ahli Shom» deb ataganlar) shakllandi.

**“Farg‘ona fiqh maktabining shakllanishi”** deb nomlangan ikkinchi bobda mintaqada fiqh maktabi shakllanishiga turtki bo'lgan asosiy omillar va ularning xususiyatlari o'rganilgan. Farg‘ona vodiysida qadim zamonlardan shaharlar barpo etilgan bo'lib ularning o'rta asrlardagi taraqqiyot darajasi, ilm-fan va madaniyat

---

<sup>52</sup> Shurayh ibn al-Horis al-Kindiy – Shurayh ibn al-Horis ibn Qays ibn al-Jahm al-Kindiy (hij.av.33/590-70/697) asli yamanlik bo'lgan tobe'in. Adolatli qozi sifatida tarixda qolgan. Adab va she'riyat bilimdoni bo'lgan. Ilk islom davri faqih qozilaridan. Xalifa U'mar ibn al-Xattob uni 639 yili Kufaga qozi qilib tayinlagan va u bu vazifani xalifa Abdulmalik ibn Marvon davrigacha oltmish yil davomida bajargan. Payg'ambar alayhissalomni o'zlaridan, U'mar ibn al-Xattob, A'li ibn Abu Tolib, Zayd ibn Sobit va boshqalarlan hadis rivoyat qilgan. Qozi Shurayh Payg'ambar alayhissalom ijazatlari bilan katta oilasini Madinaga olib kelgan sahobiy degan rivoyatlar ham bor.

<sup>53</sup> Ibrohim an-Naxa'iy – Ibrohim ibn Zayd an-Naxa'iy (47/668-96/715) katta tobe'in. Faqih va hofiz Qur'on. Hadis roviylaridan. Al-Asvad ibn Yazid an-Naxa'iy, Masruq ibn al-Ajda' va Alqama ibn Qays an-Naxa'iy va boshqalardan hadis rivoyat qilgan.

<sup>54</sup> Abu Muso al-Ash'ariy – Abu Muso A'bdulloh ibn Qays al-Ash'ariy (hij. av. 20/602-40/661) – sahoba. Asli Yamanlik bo'lib, Makkaga islomdan avval ko'chib kelgan. Payg'ambar alayhissalom u kishini Zubayd va Adanga voliy qilib yuborganlar. Keyinchalik xalifa U'mar Basraga, U'smon Kufaga voliy qilib tayinlaganlar. Xalifa Ali Siffinda u kishini o'z tomonlaridan hakam qilib tanlaganlar. Payg'ambar alayhissalomdan 163ta hadis rivoyat qilgan.

<sup>55</sup> Anas ibn Molik – Anas ibn Molik Ibn Nazr al-Ansoriy (xij.av.10/612-94/713) – sahoba. U sahobiya Ummu Sulaym binti Milhonning farzandi bo'ladi. O'n yoshlik bola chog'ida onasi Payg'ambar alayhissalomni xizmatlariga olib kelib topshirgan va duo qilishlarini so'ragan. Payg'ambar alayhissalom uni mulki, avlodi, umri ziyoda bo'lishini, gunohlari mag'firat bo'lishini so'rab duo qilganlar. Anas ibn Molik o'n yil Payg'ambar alayhissalomni xizmatlarida bo'lgan. Ilmni bevosita Rasululloh (s.a.v.)dan olgan. U hammasi bo'lib 2286ta hadis rivoyat qilgan. Bu borada Abu Hurayra va Ibn U'marlardan keyingi o'rinda turadi. Hayotining oxirida Basraga ko'chib o'tib Basra fiqh maktabini shakllanishida xizmat qilgan.

<sup>56</sup> Al-Hasan al-Basriy – Abu Sa'id al-Hasan ibn Yasar al-Basriy (21/642-109/728) – tobe'in. O'n olti yoshida Basraga kelib ilmni o'sha yerda istiqomat qilayotgan sahobalardan olgan. Rivoyat qilishlaricha uning onasi Xayra mu'minlar onasi Umm Salamani xizmatchilari bo'lgan. Bir kuni go'dak al-Hasan yig'lab qolganda Umm Salama onamiz chaqaloqni tinchlantirish uchun emizgan ekanlar. Al-Hasan al-Basriyga berilgan ilm va hikmat ana shu emizishlikning barakotidan deb aytiladi. Basraning eng mashhur allomalaridan. Umrining oxirigacha Basra muftiysi bo'lgan.

<sup>57</sup> Abu-l-Oliya Rufi' – Abu-l-Oliya Rufi' ibn Mehron ar-Riyohiy (vaf.90/709 yoki 93/712) – tobe'in. Johiliyat davrini ko'rgan. Islomga Payg'ambar alayhissalomning vafotlaridan keyin kirgan. Abu Bakr as-Siddiqning huzurlarida bo'lgan. U'mar ibn al-Xattobning orqalarida namoz o'qigan. Qur'on ilmida olim bo'lgan. Abu Bakr ibn Dovud uni sahobalardan keyin Qur'onning eng bilimdoni deb atagan. Hadislarni Ubay ibn Ka'b, Anas ibn Molik va boshqalardan rivoyat qilgan.

<sup>58</sup> Hasan ibn Abu-l-Hasan Yasar – Hasan ibn Abu-l-Hasan Yasar al-Basriy (vaf. 114/733) – tobe'in. Kalom, tafsir, hadis va fiqh ilmlari bilimdoni, voiz inson bo'lgan.

<sup>59</sup> Abu Sha'so Jobir ibn Zayd – Abu Sha'so Jobir ibn Zayd al-Yahmadiy al-Azdiy (21/642-93/712 yoki 103/722) – tobe'in. Hadis, fiqh va tafsir ilmlari bilimdoni. A'bdulloh ibn A'bhosning xos shogirdlaridan. Mu'minlar onasi Oyshadan hadis rivoyat qilgan. Ilmga chanqoq inson bo'lgan. Haj mavsumida sahoba va ulamolalar bilan uchrashib ulardan ilm olishga intilgan. Ibodiyarga aloqadorligini da'vo qilganlarga qat'iy rad javobini aytgan.

rivojiga xizmat qilgan<sup>60</sup>. Oʻrta asrlarda Fargʻona vodiysida qirqdan ortiq katta-kichik shaharlar boʻlgan<sup>61</sup> (Abdulkarim as-Samʻoniy, toʻqqizta shahar, yettita qishloq va bitta mahallani zikr qilgan) jumladan, Axsikat<sup>62</sup>, Koson, Margʻilon, Quva (manbalarda Axsikentdan ham kattaroq, ozoda va obodroq shahar, moʻgʻullar vayron qilganligi sababli kichik bir qishloqqa aylanib qolgani aytiladi<sup>63</sup>), Oʻsh, Oʻzgand, Xaylam, Qoʻqon, Xoʻjand (xalifa Yazid ibn Abdulmalik davrida fath qilingan<sup>64</sup>). U Iskandar Zulqarnayn davrida yoki hatto undan ham oldinroq mavjud boʻlgan antik Esxata shahri oʻrnida barpo etilgan degan fikrlar ham bor<sup>65</sup>) kabi shaharlar, Andukon (ilk oʻrta asrlarda qishloq hisoblangan boʻlsa, XII asrning ikkinchi yarmida moʻgʻul xonlaridan Xaydu va Duva davrida shaharga aylanib, toʻ XVIII asrgacha Fargʻonaning poytaxt shahri boʻlgan<sup>66</sup>), Gazak, Gʻandab (Gʻazaq<sup>67</sup>, Gʻandab qishloqlari<sup>68</sup> “Kitab al-ansob”da Margʻilonning mahallalaridan deyiladi<sup>69</sup>) Zarkan, Yaduxkat, Navqad, Lomish kabi qishloqlarni zikr etgan<sup>70</sup>). Bu joylarda ilm fan rivoji uchun shart sharoit boʻlganligi u yerlardan yetishib chiqqan olimlar (Abu-l-Aʼbbos Ahmad ibn Kasir al-Fargʻoniy<sup>71</sup>, Ahmad ibn Saʼduddin Oʻzgandiy Namangoniy (vaf.X asr)<sup>72</sup>, Abu-l-Vafa Muhammad ibn Muhammad al-Axsikatiy (vaf. 520/1126), Zu-l-Fazoil Ahmad ibn Muhammad al-Axsikatiy (465/1073-528/1134), Asiruddin al-Axsikatiy (501/1108-594/1198)<sup>73</sup>, Sayfiy Fargʻoniy nomi bilan mashhur Sayfuddin

<sup>60</sup> Qarang: ۱۹۶۳ حیدرآباد. مجلدہ - كتاب الانساب السمعاني. Hudud al-Alam. (The regions of the world) a presian geography/ Translated and explained by V. Minorsky, second edition. – London, 1970, 482p; Yoqut al-Hamaviy. Muʼjam al-buldon. 8 jild. – Qohira, 1906; Abu Ishak al-Farisi al-Istakhri regnorum/Ed. M.J.de Goeje, Lugduni Batavorum apud E.J. Brill, 1967. Bibliotheca geographorum arabicorum. I. – 348 p.

<sup>61</sup> Qarang: Shamsaddin Abu Abdullah Muhammad ibn Ahmad al-Moqaddasi. Descriptio imperii Moslemici /Ed. M.J. de Goeje, Lugduni Batavorum apud E.J. Brill, 1967. Bibliotheca geographorum arabicorum. III. – 498 p.

<sup>62</sup> Axsikat “... IX asrda Fargʻona deb nomlangan. At-Tabari tomonidan zikr qilingan Fargʻona shahri ham, koʻrinishidan, Axsikatga toʻgʻri keladi”. Qarang: Анарбаев А. Ахсикет – столица древней Ферганы. – Ташкент. Изд-во «Тафаккур», 2013. – С. 24.; Qozoqov T. Axsikentning muxtasar tarixi. – Toshkent. “Fan ziyosi” nashriyoti, 2024. – B. 11.

<sup>63</sup> Ахраров И. А. Археологические раскопки в шахристане городища Кува // История материальной культуры Узбекистана. Вып.10. – Т., 1973, – С. 58-65.

<sup>64</sup> Abu Saʼd Abdulkarim ibn Muhammad as-Samʻoniy. Kitab al-ansob. IV-jild. – B. 128.

<sup>65</sup> Негматов Н.Н. Об исследованиях Согдийско-таджикской археологической комплексной экспедиции в 1975 г. // Археологические работы в Таджикистане. Вып.15. – Душанбе, 1980. – С. 265-280.

<sup>66</sup> Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Соч.в 9 т. Т.1. – М., 1963. – С. 214-216.

<sup>67</sup> Yoqut al-Hamaviy. Muʼjam al-buldon. OʻzR FA Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar xazinasi. Inv.№ 2109, 288b; Abu Saʼd Abdulkarim ibn Muhammad Samʻoniy. Kitab al-ansob. IV-jild. – Bayrut. – 280 b.

<sup>68</sup> Yoqut al-Hamaviy. Oʻsha asar. – B. 340.

<sup>69</sup> Abu Saʼd Abdulkarim ibn Muhammad Samʻoniy. Oʻsha asar. – B. 312.

<sup>70</sup> Qarang: Камалиддинов Ш. “Китоб ал-ансаб” Абу Саʼда Аʼбдалкарима ибн Мухаммада ас-Самʼани как источник по истории и истории культуры Средней Азии. – Т., 1993.– 350 с.

<sup>71</sup> U astronom, matematik va geograf sifatida tarixda qolgan buyuk alloma. Uning mashhur “Az-Zij al-Maʼmun al-Mumtahana” (Al-Maʼmunning tekshirilgan astronomik jadvallari) asari astronomiyaga oid arab tilidagi dastlabki asarlardan boʻlib, oʻrta asrlarda Ovroʻpaga tarqalgan. XII asrda ikki marta lotin tiliga, XIII asrda boshqa gʻarb tillariga tarjima qilingan. Qarang: Abdullayev I. Markaziy Osiyoda islom madaniyati. – Т., 2005. – B.110.; Boʻriev O. Al-Fargʻoniy va uning ilmiy merosi. – Т.: Oʻzbekiston, 1998. – 96 b.

<sup>72</sup> Olimning “Tazkirai Bugʻroxon” nomli asari qoʻlyozma nusxalari bizgacha yetib kelgan va OʻzR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. Asar fors tilida yozilgan va keyinchalik Niyoz Qoshgʻariy tomonidan oʻzbek tiliga tarjima qilingan. Qarang: Abdullayev I. Oʻsha asar. – B. 120.

<sup>73</sup> Bu olimlar Axsikentda tugʻilib, shu yerda dastlabki taʼlim olgan va soʻng turli mamlakatlarda tahsil koʻrib, tarix, adabiyot va sheʼriyat ilmlari bilimdoni sifatida shuhrat qozongan va samarali ijod qilganlar. Qarang: Abdullayev I. Oʻsha asar. – B. 184.

Muhammad Farg‘oniy (XIII asr)<sup>74</sup>, Abu Toyiyb Tohir ibn Muhammad ibn Ja‘far ibn al-Xayr al-Maxzumiyy al-Xuqandiy (vaf. 500/1107)<sup>75</sup>, Abu Imron Muso ibn A‘bdulloh al-Muaddib al-Xo‘jandiy (vaf.559/1067)<sup>76</sup>, Abu Hafs U‘mar ibn Muhammad ibn Tohir al-Andukoniy as-Sufiy (479/1087-544/1150)<sup>77</sup> va boshqalar hamda arxeologik manbalardagi ma‘lumotlar asosida tasdiqlandi<sup>78</sup>. Tadqiqotda o‘rta asrlarda mintaqaviy maktabning shakllanishida yetakchi o‘rin tutgan allomalar yetishib chiqqan hududlarga alohida e‘tibor qaratildi. Jumladan, Axsikat (Ibrohim ibn Yusuf ibn Ahmad ibn Hamd ibn Abu-l-Fadl ibn A‘bdulloh al-Axsikatiy (faqih, muhaddis, adib)<sup>79</sup>, Abu-l-Vafa Muhammad ibn Muhammad al-Axsikatiy (vaf. 520/1126 - shoir, tarixchi, tilshunos)<sup>80</sup>, Zu-l-fazoil Ahmad ibn Muhammad al-Axsikatiy (465/1073-528/1134 - adib, shoir, tarixnavis), Asiruddin al-Axsikatiy (501/1108-594/1198 - qomusiy olim)<sup>81</sup>, al-Husayn ibn Abu A‘li al-Axsikatiy al-Farg‘oniy (vaf.XI- faqih, muhaddis), Abu Rashod Ahmad ibn Muhammad ibn al-Qosim al-Axsikatiy (459/1067-534/1140 - faqih, tilshunos, adib, tarixchi)<sup>82</sup>, Xusomuddin al-Axsikatiy (vaf.644/1247- faqih), Koson (Abu Bakr ibn Mas‘ud ibn Ahmad Alouddin al-Kosoniy (vaf.587/1191-faqih), Muhammad ibn al-Hasan Burhonuddin al-Kosoniy (vaf.XII asr – faqih)<sup>83</sup>, Muhammad ibn Ya‘qub ibn Abi Tolib al-Kosoniy (480/1088-555/1160 - hofizi Qur‘on, mutakallim<sup>84</sup>), Marg‘ilon va Farg‘ona (Abdulaziz ibn Abdurrazzoq al-Marg‘inoniy (vaf.477/1085), Zahiruddin al-Kabir Ali ibn Abdulaziz ibn Abdurrazzoq al-Marg‘inoniy (vaf. 506/1113), Abu-l-Mahosin Zahiruddin al-Hasan ibn Ali ibn Abdulaziz al-Marg‘inoniy, Muhammad Abu-l-Fath Jaloluddin al-

<sup>74</sup> Olim mo‘g‘ullar istilosi davrida o‘z yurtidan chiqib ketib, 660/1262-682/1284 yillarda Tabrizda yashagan. Umrining oxirida Rumning Oqsaroy shahriga ko‘chib borib, o‘sha yerda vafot etgan. Shoirning 10500 misra hajmidagi devoni saqlanib qolgan. Bundan tashqari, uning Sa‘diy Sheroziy bilan bo‘lgan yozishmalaridan to‘rtta maktub ham bizgacha yetib kelgan. Sayfudin Farg‘oniyning yuqorida zikr qilingan devonining 711/1312 yilda ko‘chirilgan bir nusxasi Istanbul universiteti kutubxonasida, 749/1349 yilda ko‘chirilgan nusxasi Vohid Poshsho kutubxonasida va 903/1498 yilda ko‘chirilgan yana bir nusxasi Ravon Kashku kutubxonasida saqlanmoqda. Qarang: Abdullayev I. O‘sha asar. – B.186.

<sup>75</sup> Adib va fozil inson bo‘lgan. Qo‘qonda tug‘ilib Samarqandda yashagan va Chokardiza qabristoniga dafn qilingan. Qarang: Abdullayev I. O‘sha asar. – B.195.

<sup>76</sup> Xo‘jandda yashab ijod qilgan. Hikmatli so‘zlar, rivoyatlar va yozib qoldirilgan hikoyatlar muallifi. Ustozlaridan Abu Nazr Muhammad ibn al-Hakam al-Bazzoz as-Samarqandiyning nomi zikr qilinadi. Qarang: Bobojonov A. O‘sha asar. – B.165-167

<sup>77</sup> Olim Andijonda tug‘ilib keyinchalik Farg‘onada yashagan. Manbalarda u solih shayx, faqih deb zikr qilingan. Buxoroda va Marvda tahsil olgan. Qarang: Abdullayev I. Markaziy Osiyoda islom madaniyati. – B.192.

<sup>78</sup> O‘rta asrlarga oid qabrtoshlardagi ma‘lumotlar ham bu hududda “...taniqli olimlar, faqihlar taniqli shayx va imomlar” yashaganligidan guvohlik beradi. Qarang: Настич В.Н. Мусульманская эпиграфика Ферганы и Семиречья: Памятники арабского письма XI-XVII вв. На территории Кыргызстана / Отв.ред. Б.М.Бабаджанов/ Институт востоковедения РАН. – СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена. 2019. – С. 160.

<sup>79</sup> Najmuddin U‘mar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy. Al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand. – Tehron, 1999. (arab tilida). – B. 62.

<sup>80</sup> Haji Khalifa. Lexicon bibliographicum et encyclopedicum a Mustafa bin Abdallah Katib Jalabi, instruxit Gustavus Fluegel. – London:1858. V.II. – P.160.

<sup>81</sup> Abdullayev I. Markaziy Osiyoda islom madaniyati. – T., 2005. – B. 118.

<sup>82</sup> Bobojonov A. Yoqut al-Hamaviyning “Mu‘jam al-Buldon” asarida Farg‘ona va farg‘onalik olimlar // Marg‘ilon shahrining jahon sivilizatsiyasi tarixidagi o‘rni. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent-Marg‘ilon, 2007. – B.166.

<sup>83</sup> ابو الحسنات محمد عبد الحي اللكنوي. الفوائد البهية في تراجم الحنفية. -قازان- ۱۹۰۳ ص- ۱۹۸

<sup>84</sup> Najmuddin U‘mar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy. Al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand. – Tehron, 1999. (arab tilida). – B. 584.

Fargʻoniy al-Margʻinoniy<sup>85</sup>, Abu-l-Hasan Nasr ibn al-Hasan al-Margʻinoniy, Abduljalil ibn Aʼbdulloh ibn Ali ibn Soyn al-Margʻinoniy (580/1185-631/1234) Muhammad ibn Abu Bakr ibn Yusuf Imom Ruknuddin al-Fargʻoniy (vaf. 594/1198), Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad al-Margʻinoniy (vaf. 726/1326)<sup>86</sup>, Abu Solih Abdulaziz ibn Abbod al-Fargʻoniy (vaf.269/883-muhaddis), Abu Saʼid Musʼada ibn Bakr ibn Soson al-Fargʻoniy (vaf.341/953-muhaddis), Abu-l-Aʼbbos Hojib ibn Molik ibn Arkin al-Fargʻoniy ad-Darir ad-Dimashqiy (vaf. 296/909-muhaddis), Rahma ibn Rohib al-Fargʻoniy (muhaddis)<sup>87</sup>, Bilol ibn Masʼud al-Fargʻoniy (muhaddis)<sup>88</sup>, Abu-l-Aʼbbos Xolid ibn Muhammad al-Fargʻoniy (muhaddis)<sup>89</sup>, al-imom Uʼmar ibn al-Husayn ibn al-Hasan an-Nuqqadiy al-Fargʻoniy (muhaddis)<sup>90</sup>, Abu al-Muzaffar al-Mushtab ibn Muhammad ibn Usoma ibn Zayd ibn an-Nuʼmon ibn Muhammad ibn Sufyon al-Fargʻoniy (414/1024-486/1093– faqih, muhaddis), Abu Bakr Muhammad ibn Hamavayh ibn Hadid ibn Harun ibn Idris ibn Aʼbdulloh al-Fargʻoniy (muhaddis), Abu Jaʼfar Muhammad ibn Aʼbdulloh al-Fargʻoniy as-Sufiy (muhaddis) va boshqalar.), Oʻzgand (Ali ibn Sulaymon ibn Dovud al-Hotibiy Abu-l-Hasan al-Oʻzgandiy (XI asr-faqih, muhaddis), Shams al-aimma Mahmud ibn Abdulaziz al-Oʻzgandiy (XI asr-faqih, muhaddis), Shamsulislom Mahmud ibn Abdulaziz ibn Abdurrazzoq al-Oʻzgandiy (muhaddis), Abu Muhammad Abdurrahmon ibn Aʼbdulloh ibn Ishoq ibn Ahmad al-Oʻzgandiy (vaf.513/1120-muhaddis)<sup>91</sup>, Hasan ibn Mansur ibn Mahmud Faxruddin Qozixon al-Oʻzgandiy al-Fargʻoniy (vaf.593/1197) va boshqalar), Oʻsh (Masʼud ibn Mansur ibn Mursal al-Oʻshiy (vaf.518/1125 – faqih)<sup>92</sup>, Muhammad ibn Ahmad ibn Xolid Abu Aʼbdulloh al-Oʻshiy (vaf. 612/1216 - faqih)<sup>93</sup>, Abu-l-Hasan Ali ibn al-Hasan al-Hofiz Imron ibn Muso al-Oʻshiy (faqih), Muhammad ibn Sulaymon Abu Aʼbdulloh al-Oʻshiy(faqih) va boshqalar), hamda Iyloq<sup>94</sup> (al-Xatib Abu Aʼbdulloh Muhammad ibn Dovud ibn Ahmad ibn Rizvon al-Iyloqiy (vaf. 538/1144-faqih, muhaddis), Lomish<sup>95</sup>( Abu Ali al-Husayn ibn Ali ibn Abul Qosim al-Lomishiy al-Fargʻoniy (440/1049-522/1128 - faqih)), Kubo (Ibrohim ibn Ali ibn al-Husayn Abu Ishoq al-Quboiy as-Sufiy (394/1004-474/1082 - tasavvuf shayxlaridan), Abu-l-Makorim Rizqulloh ibn Muhammad ibn Abu-l-Hasan ibn Uʼmar al-Quboiy (XII asr - adib)<sup>96</sup> kabi ilmiy markazlar xususiyatlari, ustuvor yoʻnalishlar, maktab rivojiga qoʻshgan hissalarini ochib berilib, xulosalar qilindi.

<sup>85</sup> Yoqut al-Hamaviy. Muʼjam al-buldon. 5 jild, – Qohira, 1906, (arab tilida). – B. 233.

<sup>86</sup> Oʻsha asar. – B. 235

<sup>87</sup> Najmuddin Uʼmar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy. Al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand. – Tehron, 1999. – B.170.

<sup>88</sup> Oʻsha asar. – B. 107.

<sup>89</sup> Oʻsha asar. – B. 132.

<sup>90</sup> Oʻsha asar. – B. 487.

<sup>91</sup> Najmuddin Uʼmar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy . Oʻsha asar. – B.372.

<sup>92</sup> Abu Saʼd Abdulkarim ibn Muhammad Samʼoniy. Oʻsha asar. – B. 229.

<sup>93</sup> Yoqut al-Hamaviy. Muʼjam al-buldon. 5 jild, – Qohira, 1906, (arab tilida). – B. 375.

<sup>94</sup> Bobojonov A. Yoqut al-Hamaviyning “Muʼjam al-Buldon” asarida Fargʻona va fargʻonalik olimlar. // Margʻilon shahrining jahon tsivilizatstyasi tarixidagi oʻrni. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent-Margʻilon. 2007. – B.162.

<sup>95</sup> Bobojonov A. Oʻsha asar. – B. 165.

<sup>96</sup> Bobojonov A. Oʻsha asar. – B. 167.

Dissertatsiyada maktab vakillarining hududlar bo'yicha taqsimoti (klassifikatsiya) bilan bir qatorda ilm sohalariga mansublik jihatidan taqsimotiga ham o'rin ajratildi. Bundan maqsad maktab vakillarining islom ilmlari yo'nalishlari bo'yicha xizmatlari darajasi va ahamiyatini tadqiq qilish edi. Natijada hadis va fiqh ilmi yo'nalishlari bo'yicha faoliyat yuritgan allomalar aniqlanib, ularning mintaqada mazkur yo'nalishlar rivojida hissalari bo'yicha xulosalar chiqarildi. Ma'lumki Farg'ona vodiysi an'anaviy hadis markazlari sirasiga kirmaydi. Shunga qaramay manbalarda bu yerdan yetishib chiqqan allomalar faoliyatida hadisshunoslikka oid izlanishlar bo'lganligi haqida ma'lumotlar aniqlandi (Abu Abdurrahmon al-Qosim ibn Muhammad ibn A'bdulloh al-Farg'oniy (vaf. 261/875), Abu A'bdulloh Nuh ibn Nasr al-Axsikatiy (XI asr), A'bdulloh ibn Qoid ibn Aqil ibn al-Husayn ibn Ahmad ibn Ali ibn Ahmad al-Axsikatiy (461/1069-514/1121), Nuh ibn Nasr ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Amr ibn al-Fadl ibn al-A'bbos ibn al-Horis al-Farg'oniy al-Axsikatiy (vaf. XI asr), Abu-l-Javd Ato ibn Ahmad ibn as-Sodiq al-Xolidiy al-Kosoniy, Abu Nasr Ahmad ibn Sulaymon ibn Nasr ibn Hotim ibn Ali ibn al-Hasan al-Kosoniy, Abu-l-Muzaffar Bahrom ibn Hamza ibn al-Muborak al-Hajjaj al-Marg'inoniy, Shayxulimom Abu-l-aimma Abdulaziz ibn Abdurrazzoq ibn Abu Nasr ibn Ja'far ibn Sulayman ibn Matkan al-Marg'inoniy (406/1016-476/1084), Mus'ada ibn Asfa' ibn Mus'ada ibn al-Mubarak ibn Zayd ibn Ahmad al-Farg'oniy al-Quboviy). Tadqiqotga jalb qilingan allomalar soni o'ndan ortiq, hadis ilmidagi darajalari ham turlicha. Ularning faoliyati haqidagi ma'lumotlar birinchi marta ilmiy muomalaga kiritildi. Maktab vakillarining hadis ilmida tutgan o'rnini o'rganish mintaq fiqh maktabi rivojida islom ilmlarining o'rni masalasiga aniqlik kiritish jihatidan ahamiyatlidir.

Farg'ona mintaqasi avvalo fiqh ilmi rivojida yetakchi o'rin tutgan allomalarni yetishtirgan makon sifatida musulmon dunyosida ma'lum va mashhur. Zero bu allomalar nafaqat Movarounnahr, balki butun islom olamida fiqh ilmi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan zotlar (Abdulaziz ibn Abdurrazzoq al-Marg'inoniy (vaf. 477/1085y.)<sup>97</sup>, shayx imom Zahiruddin al-Kabir Ali ibn Abdulaziz ibn Abdurrazzoq al-Marg'inoniy (vaf.506/1113), Abu-l-Mahosin Zahiruddin al-Hasan ibn Ali ibn Abdulaziz al-Marg'inoniy (vaf.XI asr), A'bdulloh ibn Ali ibn So'in ibn Abduljalil ibn al-Xalil ibn Abu Bakr al-Farg'oniy (550/1156-609/1213)<sup>98</sup>, Abu Muhammad U'mar ibn Ahmad ibn Abu al-Hasan ibn al-Hasan al-G'andabiy al-Marg'inoniy (484/1092-556/1161), Zahiruddin Ziyod ibn Ilyos Abu-l-Maoli<sup>99</sup>, Shayxulislom Nasruddin Muhammad ibn Sulaymon Abu A'bdulloh al-O'shiy<sup>100</sup>, Ziyuddin ibn Soid As'ad ibn Ishoq al-Marg'inoniy (vaf.593/1197)<sup>101</sup>, Muhammad ibn Ahmad ibn A'bdulloh al-Xatibiy al-Jodakiy<sup>102</sup>) bo'lib, jami yigirma nafar

<sup>97</sup> Mahmud ibn Sulaymon al-Kafaviy. Kataib a'lom al-axyor min mazhab an-Nu'mon al-muxtor. – Bayrut, 2019. – B. 378

<sup>98</sup> O'sha asar. – B. 294.

<sup>99</sup> Bint al-Mufti Mujib ar-Rahmon ad-Dayraviy. Al-Hodi ila Riyod al-Fiqh va-l-Fuqaho. Timrkara. – Pokiston. 2014. – B. 253.

<sup>100</sup> 386-ص 2- مجلد – القاهرة – كتاب الانتساب. ابو سعد عبد الكريم ابن محمد ابن منصور التميمي السمعاني.

<sup>101</sup> Bint al-Mufti Mujib ar-Rahmon ad-Dayraviy. Al-Hodi ila Riyod al-Fiqh va-l-Fuqaho. – B. 252.

<sup>102</sup> O'sha asar. – B. 254.

faqihlar haqidagi ma'lumotlar tahlil qilingan<sup>103</sup>.

Uchinchi bob **“Farg‘ona fiqh maktabi olimlari asarlarining manbashunoslik tahlili”** deb nomlanib unda islom ilmlariga oid asarlarning manbashunoslik tadqiqi amalga oshirilgan.

Maktab vakillari va ularning “furu’ al-fiqh” sohasida yaratgan asarlari (Alouddin al-Kosoniy – “Badoye’ as-sanoye” (“Nodir sana’lar”), Muhammad ibn Ya’qub ibn Abi Tolib al-Kosoniy (480/1088-555/1160) - “al-Amoliy” (“Imlo qilinganlar”), Zahiruddin al-Kabir ibn Abdulaziz al-Marg‘inoniy - “Kitob al-aqdiya” (Qozilik haqidagi kitob), Faxruddin Qozixon al-O‘zgandiy al-Farg‘oniy - “al-Vaqiat” (“Dalillar”), “al-Amoliy” (“Imlo qilinganlar”) “al-Muhadara” (“Ma’ruzalar”), Sirojuddin al-O‘shiy - “Javohir al-ahkom” (“Shar’iy hukmlarning javohirlari”), “Muxtalif ar-rivoya” (“Turli rivoyatlar”), “Bad’al-amoli” (“Imloning boshlanishi”), Burhonuddin al-Marg‘inoniy - “Majmu‘ muxtarat an-navazil” (“Tanlangan fatvolar to‘plami”) va boshqalar jami o‘ndan ortiq muallif va yigirmadan ortiq asarlar) o‘rganildi. Fiqh ilmiga oid asarlarning manbashunoslik tahlili sohaga mansub mashhur asarlar (“al-Hidoya”, “Majmu‘ muxtarat an-navazil” (“Tanlangan fatvolar to‘plami”), “Kitab at-tajnis va-l-mazid” (“Saralash va ziyoda qilish kitobi”), “Bidayat al-mubtadi” (“Boshlovchilar uchun dastlabki ta’lim”) misolida tadqiq qilindi.

Natijada Burhonuddin al-Marg‘inoniy asarlarining manbashunoslik tahlili tarkibiy tuzilish, boshqa asarlardan farqli jihatlari (masalan, “Muxtorot an-navozil” (“Tanlangan fatvolar”) alohida nomlangan kitoblarga, kitoblar bob va fasllarga bo‘lingan, “Tajnis va-l-mazid” (“Saralash va ziyoda qilish”)da ta’lif etishda foydalanilgan manbalarni matn tarkibida muayyan harflar bilan ifodalash uslubi qo‘llanilgan. Masalan (ﻯ) harfi Abu Lays as-Samarqandiyning “an-Navozil” (“Nozil qilinganlar”) asarini, (ﻉ) harfi “Uyun al-masail” (“Masalalrning chashmasi”) asarini anglatadi, unda muallifning boshqa fiqhiy asarlarida uchramaydigan “Kitab jam’ al-masail” (“Masalalarni to‘plash kitobi”), “Kitab al-mavaris” (“Meroslar haqidagi kitob”) va “Kitab al-xiyal va-l-maxarij” (“Xiylalar va vaziyatdan chiqish kitobi”) kabi mavzular o‘rin olgan va h.z.), mavzulari (mavzular ketma-ketligi, asar tarkibidagi foiz hisobidagi ulushi (masalan, ibodat masalasidagi “Tahorat”, “Namoz”, “Zakot” “Ro‘za” va “Haj” mavzulari asarning 25 foizini tashkil qiladi), asar strukturasi uning mazmun mohiyatini ochib berishdagi ahamiyati (52 mavzudagi kitoblarning 29 tasi bob va fasllarga bo‘linmagan), mavzularni asoslashda shariat manbalaridan foydalanilganligi darajasi (fiqhiy hukmlar Qur’oni Karim, sunnat, ijmo va qiyosga, so‘ng sahobalarning so‘zlari, keyin hanafiy mazhabi<sup>104</sup> va Movarounnahrlik

<sup>103</sup> Maktabning Sirojuddin al-O‘shiy, Faxruddin Qozixon, Burhonuddin al-Marg‘inoniy, Xusomuddin al-Axsikatiy, Alouddin al-Kosoniy kabi yirik vakillarining fiqh ilmi va mintaqa fiqh maktabi rivojida xizmatlari tahliliga dissertatsiyada alohida bob ajratilgan.

<sup>104</sup> Abu Hanifa No‘mon ibn Sobit al-Ko‘fiy (79/699-149/767)) ulug‘ imom, faqih, muhaddis, hanafiylik mazhabi asoschisi. “Al-Fiqh al-akbar” (“Katta fiqh”), “al-Musnad” (“Tayanch”) kabi bir necha asarlari bor; Abu Yusuf Ya‘qub ibn Ibrohim ibn Habib ibn Xunays ibn Sa‘d ibn Habta al-Ansoriy (112/731-181/798) islom tarixida ilk “qozi al-quzot” bo‘lgani bilan tanilgan. U 17 yil Abu Hanifadan ta’lim olgan. 165/782 yildan boshlab o‘n olti yil qozilik davrida, hanafiylik mazhabining tarqalishiga ulkan hissa qo‘shgan; Abu A‘bdulloh Muhammad ibn al-Hasan ibn al-Farqad ash-Shayboniy (131/749-189/805) asli Damashqqa qarashli Harsata qishlog‘idan bo‘lmish Shaybon

allomalarning fikrlari va asarlariga asoslangani), qo‘lyozma nusxalarning geografiyasi (“al-Hidoya”ning eng qadimiy Istanbul nusxasi 613/1217 yilda ko‘chirilgan, Toshkent nusxasi 678/1280 yilda ko‘chirilgan<sup>105</sup>, shuningdek Hindiston (inv. № 3007/1), Istanbul (inv. № 8662), Peshavar (inv. № 6185), Qashg‘ar (inv. № 11302)da hamda Buxoro (inv. №№ 3173, 8447 va h.k.), Samarqand (inv. №№ 8930, 12516, 7921 va h.k.), Nasaf (inv. № 6040, 7817), Xorazm (inv. № 4987), Andijon (inv. № 4047), Xo‘jand (inv. № 10828), Toshkent (inv. №9522)da ko‘chirilgan nusxalar.), asarlarning sharh, hoshiya va ta’liqlari (“al-Hidoya”ga asrlar davomida 60 dan ortiq sharh, hoshiya va ta’liqlar bitilgan, jumladan Hamiduddin Ali ibn Muhammad az-Zarir al-Buxoriy (vaf. 667/1269)ning “al-Favaid” (“Foydalar”), Imom Husomuddin ibn Ali as-Sig‘anaqiy (vaf. 709/1310) ning “an-Nihaya” (“Tugal”), shayx imom Qavomuddin Muhammad ibn Muhammad al-Buxoriy al-Kokiyning “Mi‘raj ad-diraya fi sharh al-Hidaya” (“Hidoyaning sharhida bilimlar narvoni”), shayx U‘mar ibn Sadr ash-Shari‘a al-aval Ubaydulloh al-Mahbubiy al-Hanafiyning “Nihayat al-kifaya fi dirayat al-Hidaya” (“Hidoyani bilishga kifoya qiluvchi tugal ilm”) nomli sharhlari), nashrlari (Hindistonda<sup>106</sup>, Turkiyada<sup>107</sup> va Saudiya Arabistonida<sup>108</sup>, O‘zR FA Sharqshunoslik institutida<sup>109</sup> va h.z.) aniqlandi va tahlil qilindi.

Tadqiqot natijasida Alouddin al-Kosoniyning “Badoye’ as-sanoye” (“Nodir sana’tlar”) asari qo‘lyozma nusxalari mamlakatimiz hududida saqlanib qolmaganligi ma’lum bo‘ldi. Shu bois asarning manbashunoslik tahlili 852/1449 yili Yahyo ibn Muhammad al-Buxoriy tomonidan ko‘chirilgan qo‘lyozmasi asosida amalga oshirildi. Unda qo‘lyozmaning alohida xususiyatlari, muallif tarjimai holiga aloqador ma’lumotlar, asarning strukturasi (fiqhiy masala bo‘yicha boshqa mazhab vakillarining fikrlarini keltirib, so‘ng hanafiy mazhabi qoidalarini keltirishga o‘tish uslubi (لنا) yangi mavzuga kirishni ko‘rsatuvchi belgi qo‘yish va h.z.) kabi, hamda qo‘lyozma nusxalari va ularning saqlanish joylari (Turkiya, (Ko‘prulu, Hofiz Ahmad Posho fondi 32HA81, 31 HA82, 32 HA83 va 32 HA84, Manisa al-Xalq kutubxonasi 45 Hk 478/2, Atif Afandi fondi 34 Atf 748 va 34 Atf 749, Fazlulloh Afandi fondi 34 Fe 676), Irlandiya (Chester Bitti kutubxonasi inv. № 3638/I, 3638/II), Qatarda (“Dar al-kutub al-qatariya” kutubxonasi inv №747), Quvayt (“Ma’had al-maxtutot al-arabiya” kutubxonasi inv№ 1809/I,II) Germaniya (Berlin Davlat kutubxonasi inv. №

---

qabilasiga mansub. Imom Muhammad yuzlab asar yozib qoldirgan degan gap bo‘lsa-da, biroq, uning o‘ndan ortiq asarlarining nomi ma’lum, xolos. Ular “Zohir ar-Rivoya” kitoblari hamda “Zohir ar-Rivoya” bo‘lmagan kitoblarga bo‘linadi; Zufar ibn al-Huzayl ibn Qays al-Anbariy at-Tamimiy (109/728-158/775) Abu Hanifadan 20 yil ta’lim olgan. Uni asar yozgani haqida ma’lumot yo‘q, lekin fiqhiy manbalarda uning fiqhiy qarashlari va fatvolari ko‘plab zikr etiladi.

<sup>105</sup> Bu mamlakatimizda saqlanadigan eng qadimiy nusxa hisoblanadi

<sup>106</sup> Burhonuddin al-Marg‘inoniy. Muxtorot an-navozil. Nashrga tayyorlovchi Xolid Sayfulloh ar-Rahmoniy. “Ifo” nashriyoti. –Nyu Delhi, Hindiston. 2013. – 543 b.

<sup>107</sup> Burhonuddin al-Marg‘inoniy. Muxtorot an-navozil. Tanqidiy matn. Nashrga tayyorlovchi Ahmad G‘yunash. – Konya, Turkiya. 2010. – 536b.: Burhonuddin al-Marg‘inoniy. Muxtorot an-navozil. Nashrga tayyorlovchi Ahmad G‘yunash. “Irshod” nashriyoti. –Istanbul, Turkiya. 2016. – 567 b.

<sup>108</sup>Burhonuddin al-Marg‘inoniy. Muxtorot an-navozil. Nashrga tayyorlovchi Amina Salohiddin as-Sag‘ir. “Al-Muqtabis” nashriyoti. – Makka, Saudiya Arabistoni. 2013. – 643 b.

<sup>109</sup> Burhonuddin al-Marg‘inoniy. Muxtorot an-navozil. Arab tilidan o‘zbek tiliga ilmiy-izohli tarjima. Tarjima mualliflari O.Qoriyev, H. Aminov, M.Ismoilov, B. Abdullayev, O‘. Palvanov. Mas’ul muharrir O. Qoriyev. – T., “Fan”, 2019. – 605 b.

447-449) Angliyada (Britaniya muzeyi kutubxonasi inv. № 5512 Or), Tunis (Zaytuniya universteti kutubxonasi inv.№ 68/IV), Falastin (“Maktabat al-xolidiya” kutubxonasi inv. № 13/III), Misr (“Hudayviya” kutubxonasi inv. № 12/II, “Dar al-kutub al-misriya” inv № 405/I, “Maktabat al-azhariya” inv № 44133), Suriya (“az-Zohiriya” kutubxonasi inv. №№ 231,2576), Saudiya Arabistoni (“Markaz al-Malik Faysal li-l-buhus va-d-dirosat al-islamiya” kutubxonasi inv. №№ 11731-1173 b, 16739-16735b, 260/II b,) Hindiston (“Maktabat al-osifiya” kutubxonasi inv. № 1074/II, 344, “Maktabat Rambur” kutubxonasi inv. №№ 171/I, 59, 419/II, 728-732), AQShda (“Barniston” kutubxonasi inv. № 2563, 2807) aniqlandi, nashr<sup>110</sup> va tarjimalari<sup>111</sup> haqidagi ma’lumot tahlil qilindi.

Hanafiy mazhabida “usul al-fiqh” sohasiga oid ellikka yaqin asar hamda yuzdan ortiq sharh va izoh bitilgan<sup>112</sup>. Ular qator adabiyotlarda zikr etiladi<sup>113</sup>. Dissertatsiyada sohaga oid asarlar va ularning mualliflari (Abu Mansur al-Moturidiy (vaf. 322/944) “Ma’xaz ash-sharoyi” (“Sharia’t manbalari”)<sup>114</sup>, Abulhasan Ubaydulloh ibn al-Husayn al-Karxiy (258/873-340/952) “Usul al-Karxiy”<sup>115</sup>, Abu Bakr al-Jassos (305/918-369/980) “al-Fusul fi-l-usul” (“Fiqh asoslarini qo’llanishi”)<sup>116</sup>, Abu Zayd ad-Dabusiy (367/978-430/1039) “al-Anvor fi usul al-fiqh”<sup>117</sup> (“Fiqh asoslariga oid nurlar”), Abdulkarim ibn Muso al-Bazdaviy (399/1009-481/1089) “Usul al-Bazdaviy” (“Bazdaviyning fiqh asoslari kitobi”)<sup>118</sup> va boshqalar), hamda bu ilm rivojida Farg’ona fiqh maktabi olimlarining o’rni (Abu-l-Sano Mahmud ibn Zayd al-Lomishiy (vaf. tax. 539/1145) “Kitab fi usul al-fiqh” (“Fiqh asoslari sohasidagi kitob”), Husomuddin al-Axsikatiy (vaf. 644/1247) “Muntaxab al-Husomiy” (“Husomiy qisqartmasi”) tadqiq qilindi. Natijada, mazkur kitoblarning tarkibi (“Kitab fi usul al-fiqh” muqaddima, 37 fasl va 53 masaladan tarkib topgan bo’lsa, “Muntaxab al-

<sup>110</sup> Alouddin al-Kosoniy. *Badoye’ as-sanoye’ fi tartib ash-sharoye’*. Nashrga tayyorlovchi Ali Muhammad Mu’avvad va Odil Ahmad Abdulmajid. X jild. – Bayrut, Lubnon. 2003.

<sup>111</sup> Alouddin al-Kosoniy. *Badoye’ as-sanoye’ fi tartib ash-sharoye’*. Arab tilidan o’zbek tiliga ilmiy-izohli tarjima. 1-2 jild. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi Alouddin Mansur. – Toshkent. 2015. – 459 b.

<sup>112</sup> Abu Hafs an-Nasafiy. *Tahsil usul al-fiqh / Tarjimon va nashrga tayyorlovchilar: H. Aminov, S. Muhammadaminov; mas’ul muharrir O. Qoriyev; O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta-maxsus ta’lim vazirligi Toshkent davlat sharqshunoslik in-ti huzuridagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo’lyozmalari markazi – T.: «Noshir» nashriyoti, 2015. – B. 8.*

<sup>113</sup> Qarang: Abdulhay al-Laknaviy. *Al-Favoid al-bahiyya fi tarjima al-hanafiyya*. – Qozon, 1902. – B. 324 (bundan keyin: al-Laknaviy. *al-Favoid al-bahiyya*); Ahmet Ozel. *Hanafi fikih alimlari*. – Ankara: Turkiye diyanet vakfi yayinlari, 2006. – 273bet; Nodir Nabijon o’g’li. *Usul ul-fiqh haqida saboqlar*. – T.: Toshkent islom universiteti, 2008. – 140 b. ; Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. *Usul ul-fiqh*. – T.: Sharq, 2010. – 576 b. ; Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. *Fiqhiy yo’nalishlar va kitoblar*. – T.: Sharq, 2011. – 304 b.

<sup>114</sup> Asarning fiqh asoslariga oid ekani manbalarda qayd etilgan. Jumladan Abu Hafs an-Nasafiy (1068–1142) jamlagan “Matla’ an-nujum va majma’ al-ulum” (Yulduzlarning chiqish va ilmlarning to’planish joyi) nomli to’planning fiqh asoslariga bag’ishlangan qismida “Ma’xaz ash-sharoyi” (“Shariat manbalari”)dan iqtiboslar keltirilgan. Biroq asarning alohida to’liq matni hozirgacha topilmagan.

<sup>115</sup> Afsuski bu asarning ham kitob shaklidagi to’liq matni bizgacha yetib kelmagan. Biroq Makkadagi “Umm al-Quro” islom universiteti professori doktor Husayn Xalaf Sulaymon al-Juburiy hanafiylik mazhabiga tegishli kitoblardan al-Karxiyning fiqh asoslariga oid fikrlarini jamlab 1989 yil “Al-Aqvol al-usuliy li-l-Imom Abulhasan al-Karxiy” (Imom Abulhasan al-Karxiyning usul haqidagi gaplari) nomi bilan nashr qilgan.

<sup>116</sup> 1985 yilda Quvaytda Ajil Josim an-Nashamiy tomonidan tahqiq qilinib, nashr etilgan.

<sup>117</sup> Bu asarning qo’lyozmasi hozirgacha topilmagan.

<sup>118</sup> Asar shuningdek “al-Usul” (“Asoslar”), “Kanz al-Vusul ila Ma’rifat al-Usul” (“Usulni tanishga yetkazuvchi xazina”), “Kitob al-kabir fi usul al-fiqh” (“Usul al-fiqh to’g’risidagi katta kitob”) kabi nomlar bilan ham mashhur bo’lgan. Unga o’ndan ortiq sharh yozilgan. Abdulaziz al-Buxoriy (vaf. 1330) qalamiga mansub “Kashf al-asror” (“Sirlarni ochib berish”) nomli sharhi Qohira va Istanbulda nashr etilgan.

Husomiy” to‘rt bob, 25 fasl va 9 qismdan iborat.), uslubi (“Kitab fi usul al-fiqh”da qiyos tamoyili fiqhning asllaridan hisoblanmagan holda “Muntaxab al-Husomiy”da qiyos to‘rtinchi asl ekanligi belgilangan) manbalari (“Kitab fi usul al-fiqh” manbalarini Qur‘oni Karim oyatlari (32 ta suraning 39 ta oyati), Payg‘ambar alayhissalomning sunnatlari (25 ta hadisdan 29 o‘rinda), sahobalar (Ali ibn Abu Tolib, Ibn A‘bbos, A‘bdulloh ibn Mas‘ud, Mu‘oz ibn Jabal, Abu Musa al-Ash‘ariy) ahli sunna va-l-jamoa mazhaboshilari (Abu Hanifa, Molik ibn Anas, Muhammad ibn Idris ash-Shofe‘iy, Ahmad ibn Hanbal), hanafiy mujtahidlari (Abu Yusuf, Muhammad ash-Shaybaniy, Zufar), hanafiy allomalari (Abu A‘bbos al-Qalonisiy, Abu Ishoq Isfaroyiniy, al-Qaffol ash-Shoshiy, Abu Zayd al-Dabusiy, Abu Mansur al-Motrudiy, Abu-l-Hasan al-Karxiy va boshqalar) fikrlari, islom dinidagi turli firqalar vakillari (mu‘tazila Ibrohim ibn Sayyor an-Nazzom, Abu Hoshim al-Jubbaniy uning o‘g‘li Abu Hoshim va boshqalar, karramiya, xavorij, rofiziyy, voqifiy va zohiriylar) yondoshuvlari mohiyati asosida bu ilm sohasining tadrijiy rivoji xususiyatlari aniqlandi. Ayni paytda mazkur ikki asarning mamlakatimiz va jahon qo‘lyozma fondlarida saqlanib qolgan qo‘lyozma nusxalari kam sonli ekanligi ayon bo‘ldi. Mavjud adabiyotlar va kataloglarda “Kitab fi usul al-fiqh” (“Fiqh asoslari sohasidagi kitob”)ning mamlakatimiz hududida saqlanib qolgan nusxalari haqida ma‘lumotlar topilmadi. Tadqiqotda foydalanilgan ikki qo‘lyozma nusxa tahlilida asarning Abd al-Majid at-Turkiy tomonidan amalga oshirilgan nashridan olingan ma‘lumotlarga tayanildi, asar nashrlari (1995 va 2018 yilda Bayrutda<sup>119</sup> chop qilingan) tahlil qilindi.

“Al-Muntaxab al-Husomiy” qo‘lyozmalarining mamlakatimizda (O‘zR FA ShI inv № 10718/1), xorijiy mamlakatlarda (BAA, Dubay, Jum‘al-Majid fondi (inv. №№ 1089, 1161, 1162, 1163). “Misr kutubxonasi” (inv. № 190), Berlin davlat kutubxonasi (inv. № 4858), Saudiya Arabistoni Qirolligining “Umm al-Quro” universiteti (inv. № 106)<sup>120</sup>), hamda sharhlari (“at-Tahqiq” nomli sharhning nusxalari Dimashq, “az-Zohiriyya” kutubxonasi (inv. №№ 2868, 5619, 7738), BAA, Dubay, Jum‘a-l-Majid fondi (inv. №№ 3466, 399), “at-Tabyin” nomli sharhi nusxalari “Misr kutubxonasi” (inv. № 142), “Iskandariyya kutubxonasi” (inv. № NJ 3634), “Berlin davlat kutubxonasi” (inv. № 4588) nusxalari va nashrlari (“Muxtasar al-Husomiy”ning 1999 yil Dimashq nashri<sup>121</sup>) tahlil qilindi. O‘rta asrlarda usul fiqh sohasidagi yondoshuvlar ikki muallif orasidagi bir yarim asrlik muddat davomida sezilarli taraqqiy etgani, metodolgik yondoshuv va xulosalardagi farqlarda namoyon bo‘lgani ko‘rsatib berildi.

Dissertatsiyada fatvo janridagi asarlarning o‘ziga xos jihatlari, unga qo‘yiladigan talablar, manbaviy asoslari ham qo‘lyozmalari tahlili asosida ochib berildi. Buning uchun hanafiy mazhabidagi fatvo to‘plamlari (Abu-l-Lays as-Samarqandiy (vaf. 393/1003)<sup>122</sup>ning “Fatovo Abu-l-Lays” (“Abu-l-Lays fatvolari”), A‘bdulloh al-

<sup>119</sup> Abu-l-Sano Mahmud ibn Zayd al-Lomishiy. Kitab fi usul al-fiqh. Tahqiq Abd al-Majid at-Turkiy. – Bayrut, Dar al-g‘arb al-islamiy. 1995; Mahmud ibn Zayd al-Lomishiy. Kitob fi usul al-fiqh. Nashrga tayyorlovchi Abdulmajid Turkiy. – Bayrut, Dor al-g‘arb al-islomiy, 2018.

<sup>120</sup> Bu nusxa asarning Turkiyada “Ahmad uchinchi” kutubxonasida 1009 raqam ostida saqlanadigan qo‘lyozma nusxasining fotonusxasi.

<sup>121</sup> Valiuddin Muhammad Solih al-Farfur. Al-Muzhab fi usul al-mazhab ala al-muntaxab. – Dimashq. 1999.

<sup>122</sup> Abu-l-Lays al-Faqih Nasr ibn Muhammad as-Samarqandiy (vaf. 393/1003) mashhur faqih. Uning Imom al-hudo degan laqabi ham bo‘lgan. Fiqhni Abu Ja‘far al-Hinduvoniydan o‘rgangan. Ilmiy merosini “al-Fatovo” (“Fatvolar”), “Xizonat al-fiqh” (“Fiqh xazinasi”), “an-Navozil” (“Nozil bo‘lgan narsalar”), “al-Uyun”

Zindavisatiy al-Buxoriy (vaf. 400/1010) ning “Nazm al-fiqh” (“Fiqh tartibi”), Ali ibn al-Husayn as-So‘g‘diyning (vaf. 461/1069)<sup>123</sup> “al-Nutaf fi-l-fatovo” (“Fatvolar haqida qatralar”), Abu Bakr al-Buxoriyning (vaf. 522/1128) “Xizonat al-fatovo” (“Fatvolar xazinasi”), Husomiddin U‘mar ibn Abdulaziz ibn U‘mar ibn Moza al-Buxoriyning (482/1090-536/1141) “Fatovo kubro” (“Katta fatvolar to‘plami”) va “Fatovo sug‘ro” (“Kichik fatvolar to‘plami”)<sup>124</sup>, Muhammad ibn Abu-l-Mafoxir al-Kirmoniyning (vaf. 577/1182) “Javohir al-fatovo” (“Fatvolar javohiri”)<sup>125</sup>, Ahmad ibn Muhammad al-Attobiy al-Buxoriyning (vaf.585/1190)<sup>126</sup> “Fatovo Attobiyya” (“Attoblikning fatvolari”)<sup>127</sup>, Alouddin al-Dinoriyning (516/1123-593/1197) “Fatovo Dinoriya” (“Dinoriyning fatvolari”)<sup>128</sup>, Ahmad ibn Ismoil at-Temurtoshiy al-Xorazmiyning (vaf. 611/1215)<sup>129</sup> “Fatovo Temurtoshiya” (“Temurtoshiyning fatvolari”)<sup>130</sup> va asosan Farg‘ona fiqh maktabi vakillari (Sirojiddin al-O‘shiy va Faxruddin Qozixon)ning fatvo janridagi kitoblariga tayanildi Avvalo bu asarlarning tarkibiy tuzilishi (“Fatovo Sirojiya” (“Sirojiiy fatvolari”) asarida 57 kitob, 392 bob va 37 faslda,) manbalari (chahoryorlar, ahli sunna mujtahidlari, hanafiy mazhabi mujtahidlari, mutaqqaddim va mutaaxxir ulamolardan 127 kishi va 23ta asar, rofiziy, jahmiy va qadariy kabi fiqarlar vakillari, 7 ta suradan 13ta oyat, hamda 13ta hadis), asl manbalardan (oyat va hadis) istefoda etishning mavzular bo‘yicha nisbati (“Muftilar odobi kitobi” (2 oyat, 5 hadis), “Karohiyat va istehson kitobi” (3ta oyat), “Namoz kitobi” (3 ta oyat ), asar umumiy hajmining oyat va hadislar bilan asoslanganlik nisbati 12, 2% ) tahlil qilinib aniqlangan. “Fatovo Qozixon” (“Qozixon fatvolari”) asarining ham tarkibi (fiqhiiy masalalar 44ta kitob, 64 bob 297 fasl, ) manbalari (110 kishi bulardan sahobalar -9, mujtahid mutlaqlar – 3, mazhab mujtahidlari – 5, turli darajadagi mujtahidlar–3 nafar, Samarqand, Balh, Buxoro Farg‘ona mutaqqaddim va mutaaxxir mashoyixlari, 17ta asar, 27ta oyat, hamda 82ta hadis), asl manbalardan (oyat va hadis) istefoda etishning mavzular bo‘yicha nisbati (“Namoz kitobi” (11 oyat, 7 hadis) “Ro‘za kitobi” (2 oyat, 9 hadis), “Nikoh kitobi” (1 oyat, 20 hadis), “Hazr va ibohat kitobi” (1 oyat, 14 hadis), asar umumiy hajmining oyat va hadislar bilan asoslash nisbati 50%), hamda manbashunoslik jihatidan xususiyatlari tahlil vositasida aniqlandi.

---

(“Chashmalar”), “Tafsir al-Qur‘on” (“Qur‘on tafsiri”), “Bo‘ston al-orifin” (“Oriflar bo‘stoni”) va “Tanbih al-g‘ofilin” (“G‘ofillarga tanbih”) kabi asarlar tashkil qiladi.

<sup>123</sup> Shayx al-islom Abu-l-Hasan Ali ibn Husayn ibn Muhammad as-Sa‘diy as-So‘g‘diy (vaf.461/1069). Buxoroda yashagan faqih va hadisshunos olim. Undan Shayx al-islom as-Saraxsiy (399/1009-482/1090) Imom Muhammadning “as-Siyar al-kabir” (“Katta harbiy yurishlar”) asarini rivoyat qilgan. Ali Sa‘diy Buxoroda 461/1069 yili vafot qilgan. “An-Nutaf fi-l-Fatovo” (“Fatvolar haqida qatralar”) hamda “Sharh as-siyar al-kabir” (“Katta harbiy yurishlar sharhi”) asarlari muallifi.

<sup>124</sup> Bu ikki asarning bittadan qo‘lyozma nusxalari O‘zRFA ShI fondida saqlanadi.

<sup>125</sup> Mazkur asarning Ixtiyoriddin ibn G‘iyosiddin al-Hiraviy 889/1484 yilda kitobat qilgan noyob qo‘lyozma nusxasi bilan yana uchta nusxasi O‘zR FA ShI qo‘lyozmalar fondida saqlanadi.

<sup>126</sup> Zaynuddin Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn U‘mar al-Attobiy al-Buxoriy (vaf.585/1190) - hanafiy faqih va mufassir. Buxoroda tavallud topgan. Nisbasi Buxoro mahallaridan biriga nisbatan olingan. Ilmiy merosini “Javomi’ al-fiqh” (“Fiqh” to‘plamlari”), “Sharh al-jome’ al-kabir” (“Katta to‘plam sharhi”), “Sharh al-jome’ al-sag‘ir” (“Kichik to‘plam sharhi”) va “Sharh az-ziyodot” (“Ziyodalar asari sharhi”) asarlari tashkil qiladi.

<sup>127</sup> Bu asar yana “Javome’ al-fiqh” (“Fiqh to‘plamlari”) va “Jome’ al-fiqh” (“Fiqh to‘plami”) deb ham ataladi,

<sup>128</sup> O‘zR FA ShI qo‘lyozmalar fondida mazkur fatvo to‘plamining nusxasi inv.№ 3180 ostida saqlanadi.

<sup>129</sup> Abu-l-A‘bbos Zahiriddin Ahmad ibn Ismoil ibn Muhammad Oytug‘mish Abu Sobit at-Temurtoshiy al-Xorazmiy (vaf. 611/1215)- muhaddis, hanafiy faqih. Xorazm muftisi bo‘lgan. Alloma “Sharh al-jome’ as-sag‘ir” (“Kichik to‘plam sharhi”), “al-Faroz” (“Meros”), “at-Tarovih” (“Orom olish”) asarlari muallifi.

<sup>130</sup> Mazkur asarning qo‘lyozmalari O‘zR FA ShI qo‘lyozmalar fondida inv. №№. 5563, 4915, 3280 ostida saqlanadi.

Fatvo janriga oid "Fatovo Sirojiya" ("Sirojiy fatvolari") asarining qo'lyozmalari tahlili asosida mamlakatimizda (O'zR FA ShI inv. №№ 4662, 10591/2, 11906, 3009, 7109, 7399, 2560, 3106.), xorijiy davlatlarda (Turkiya, Anqara<sup>131</sup>, Saudiya Arabistoni Podshohligi, ar-Riyoz<sup>132</sup>, Qirg'iziston Respublikasi, O'sh<sup>133</sup>), hamda "Fatovo Qozixon" ("Qozixon fatvolari") asarining qo'lyozmalari mamlakatimizda (inv. №№ 7134, 6184, 7929, 5643, 11575 va boshqalar), shuningdek, bu asarlar tarjimalari qo'lyozmalari ("Qozixon fatvolarining tarjimasi" nomi bilan tojikcha tarjimasi inv. № 2801)<sup>134</sup>, qisqartma va saylanmalari qo'lyozmalari (Shayx Mahmud Adhamning "Muxtasar Qozixon" ("Qozixon fatvolari qisqartmasi"), Qozizoda Yusufning "Fatovo Qozixon" qisqartmasi), nashrlari<sup>135</sup> aniqlandi va ular asosida tegishli xulosalar qilindi. Fatvo janridagi asarlar Farg'ona vodiysi aholisini asrlar davomida islom fiqhining hanafiy yo'nalishida og'ishmay qolishida katta ahamiyat kasb etgan. Ular islom dinining asl manbalari Qur'oni Karim, Payg'ambar alayhissalom sunnatlari, hamda sahobalar, ahli sunna mazhabboshilari, mutaqaddim va mutaxxir mujtahid ulamolar ilmiy meroslariga asoslangani bois Movarounnahr hududidan chiqib boshqa musulmon mamlakatlarida ham e'tibor qozongan.

Tadqiqotda islom ilmlarining yetakchi sohalari usul al-fiqh, furu' al-fiqh va fatvo yo'nalishlariga "**Farg'ona fiqh maktabi vakillarining islom ilmlari rivojida o'rni**" nomli alohida bob ajratildi. Ma'lumki o'rta asrlarda fiqh ilmi eng muhim sohalardan bo'lgan. Maktab vakillarining furu' al-fiqh sohasi rivojida o'rni Burhonuddin al-Marg'inoniy va Alouddin al-Kosoniyning asarlari tadqiqi (fiqh ilmiga oid asarlar tarkibiy tuzilishi hamda mavzular tahlili, fiqh ilmining mintaqadagi tadrijiy rivoji dinamikasini aniqlash, fiqhiy asarlarda mavzular soni va mazmunidagi farqlar asosida muayyan tarixiy davrdagi muhim ijtimoiy, siyosiy jarayonlar haqida xulosalar chiqarish) asosida ochib berilgan. Usul al-fiqh sohasida maktab vakillari xizmatlari Husomuddin al-Axsikatiy, Mahmud al-Lomishiylar asarlari asosida (ijmo tamoyili borasidagi asos va xulosalar, ijmo huquqi<sup>136</sup>, ijmo qarori legitimligi<sup>137</sup>, yakdil bo'lmagan fikrlar asosida chiqarilgan hukm) tadqiq qilingan va mazkur masalalarda hanafiy mazhabida qabul qilingan asoslarning ustuvorligi va hayotiyliigi isbotlab berilgan<sup>138</sup>. Fatvo yo'nalishida asarlar mazmun mohiyati va alohida xususiyatlari Sirojuddin al-O'shiy, Faxruddin Qozixon asarlari asosida (islom dinida ilm, axloq va

<sup>131</sup> Qo'lyozma Safiuddin al-Qurashiy al-Lohuriy tomonidan 962/1560 yilda ko'chirilgan. Umumiy hajmi 204 v. Fatovo Sirojiya. Tahqiq Muhammad U'smon al-Bustaviy. "Dor al-ulum Zakariyo". – Linishiya, JAR. 2011. – B. 10.

<sup>132</sup> Podsho Saud universitetida inv. №697 ostida saqlanadi. Muhammad ibn Xalil ibn Muhammad Xayruddinzoda al-Amosiy tomonidan 1136/1724 yilida ko'chirilgan. Qo'lyozmaning umumiy hajmi 356 varaqni tashkil qiladi. Qarang: Fatovo Sirojiya. Tahqiq Muhammad U'smon al-Bustaviy. "Dor al-ulum Zakariyo". – Linishiya, JAR. 2011. – B. 10.

<sup>133</sup> Asarning eng qadimiy nusxalaridan biri 599/1203 yilda O'shda Ali ibn U'smon ibn Muhammad at-Taymiy tomonidan ko'chirilgan. Haji Khalifa. Lexicon encyclopedicum et bibliographicumT. IV. – London, 1845, – P. 358

<sup>134</sup> Tarjima Buxoro xoni Subhonqulixon davrida Qozi Vafo ibn Muhammad Fozil Balxiy tomonidan amalga oshirilgan.

<sup>135</sup> Sirojuddin al-O'shiy. Fatovo as-sirojiya. Nashrga tayyorlovchi Muhammad U'smon al-Bustaviy. Dor al-ulum Zakariyo. – Linishiya. Janubiy Afrika. 2011.; Faxruddin Qozixon. Fatovo Qozixon. Nashrga tayyorlovchi Solim Mustafo al-Badriy. Dor al-kutub al-ilmiya. III jild. – Bayrut, Lubnon. 2009.

<sup>136</sup> Xusomuddin al-Axsikatiy. Al-Muntaxab al-Xusomiy. O'zR FAShI qo'lyozmalar xazinasi. Inv.№ 12973/IV. – B. 60a.

<sup>137</sup> O'sha joyda.

<sup>138</sup> O'sha joyda.

falsafiy masalarga munosabat, Muhammad alayhissalomning shaxsiyatlariga aloqador fikrlar, ahli sunna va-l-jamo'a mazhablari faoliyatining o'ri va ahamiyati, hanafiylik va shofe'iylik mazhablari qiyosiy tahlili, hukm chiqarishda maslahatlashuv "sho'ro" prinsipi<sup>139</sup>, mujtahidlar darajalari, mujtahid darajasiga qo'yiladigan talablar, Iroq va Movarounnahr faqihlari chiqargan fatvolarni qiyosiy o'rganish) tahlil qilingan.

Islom ilmlariga oid asarlarni ilmlar rivojining turli davrlariga mansubligi kesimida ham alohida yondoshildi. Natijada turli davrlarga oid asarlar tadqiqi orqali mintaqada fiqh ilmi rivojlanishi turli bosqichlardan o'tganligini kuzatish imkoniga ega bo'ldik. Zero bu sohada bitilgan asarlarning tarkibiy tuzilishi va ilmiy sifat darajasidagi o'zgarishlar ham tadrijiy xususiyatga ega. Muayyan davrlarda bitilgan fiqhga oid asarlarning tahlili bu jarayon uch bosqichdan o'tganligini ko'rsatdi (fiqhiy masalalarga javob beruvchi hadis va sunnatlarni bir kitobga jamlangan asarlar bitilgan bosqich, fiqhiy masalalarni mavzular bo'yicha tasnif etib, ularni mazhab asoschilari fikrlari bilan tasdiqlangan asarlar yaratilgan bosqich va fiqhiy masalalarni mavzular bo'yicha tartib berish, ularni Qur'oni Karim oyatlari, Payg'ambar (s.a.v.) sunnatlari bilan asoslash, mazhab asoschilari fikrlari bilan tasdiqlash, mazhab mujtahidlari va mintaq' ulamolari fikrlari bilan quvvatlash, boshqa mazhablarning hukmlari bilan qiyoslangan fiqhiy asarlar yozilgan bosqichi). Har bir bosqichning xususiyati asar yaratilgan davrdagi ilmiy tafakkur darajasi, qo'llanilgan uslub va manbalarning saviyasi bilan belgilangan. Mazkur mezonlarga asoslanganda Farg'ona fiqh maktabida yaratilgan asarlar uchinchi bosqichga xos bo'lgan belgilarni o'zida mujassam qilganini kuzatish mumkin (jumladan furu' al-fiqhga oid asarlardagi huquqiy qoidalarni asoslashda oyat, hadis va sunnat dalillardan istifoda etilganligi, ahli sunna va-l-jamoaning boshqa mazhab olimlari fikrlari bilan qiyoslanganligi, ularni hanafiy mazhabining ustuvorligini tasdiqlovchi manba darajasiga ko'tarilganligi). Manbalarning qiyosiy tahlili natijasida furu' al-fiqh sohasidagi asarlar (Burhonuddin al-Marg'inoniyning "al-Hidoya", Muhammad al-Shayboniyning "al-Jome' as-sag'ir" ("Kichik t o'plam") va imom al-Quduriyning "Muxtasar al-Quduriy" ("Quduriy qisqartmasi")ni farqlantirib turadigan ("al-Hidoya"da ibodat masalalariga ko'proq e'tibor qaratilib, batafsil tahlil qilish uslubi qo'llanilgani, islom dini Movarounnahr mintaqasiga hanafiy mazhabi shakllangan boshqa musulmon mamlakatlaridan deyarli bir asr keyin kirib kelganligi bois moliyaviy, iqtisodiy va jinoiy javobgarlik masalalari bo'yicha belgilangan mezonlar alohida kitob<sup>140</sup>da berilgani, fiqhiy qoidalarni oyat va hadislar bilan asoslanish uslubi qo'llanilgani, mazhab mujtahidlari fikrlarini fiqhiy qoidalarni asoslashda dalil sifatida foydalanish, fiqhiy masalalarning manbasini, guvohlik qilgan tarixiy shaxslarning nomlari, (jumladan, Movarounnahr allomalari al-Halvoiy, as-Saraxsiy va boshqalar<sup>141</sup>) fikrlari, hukmlari va tarixiy voqealar bilan taqqoslab asoslash<sup>142</sup> va h.z) kabi xususiyatlari aniqlandi.

<sup>139</sup> Sirojuddin al-O'shiy. Fatavo Sirojiya. O'zR FASHI qo'lyozmalar xazinasini Inv. № 3009 – B. 263 b.

<sup>140</sup> Boshqa fiqhiy asarlarda bu mavzular alohida kitob mavzusi qilib olinmagan "al-Hidoya"da maxsus kitobga ajratgan holda berilgan.

<sup>141</sup> "Al-Hidoya"da alloma Burhonuddin al-Marg'inoniygacha bo'lgan davrda yashab ijod qilgan hanafiy mazhabi faqihlaridan o'ttizdan ortiq allomaning nomlari va yigirmadan ortiq asarlari manba sifatida keltirilgan.

<sup>142</sup> ۸۷ ص - ۱۹۹۰. بيروت. - شرح بداية المبتدي. - برهان الدين المرغاني الهداية في شرح بداية المبتدي.

Maktab doirasida o'rta asrlar uchun an'anaviy bo'lmagan fors tilida bitilgan fiqhiy asarlarga e'tibor qaratildi (Abu A'bdulloh Muhammad ibn Ali ibn Abu-l-Qosim ibn Abu Rajo al-Qoidiy al-Xo'jandiyning "al-Fatovo al-Qoidiya" ("Qoidiy fatvolari") asari misolida). Farg'ona maktabi allomalarning fiqhga oid asarlarida forsiy unsur (element) va iqtibos (fragmentlar) uchrashi ajablanarli holat emas ("al-Hidoya", "Fatovo Qozixon"). Ammo asarning deyarli yarmi fors tilida bo'lishi mazkur asarda kuzatildi ("Fatovo Qoidiya" da har bir sahifada matnning deyarli teng yarmi fors tilida ekanligini ko'ramiz). Bu davrda fiqhiy asarlarni fors tilida bitish ommalashmaganini ko'rsatuvchi dalil ham Farg'ona maktabi allomalari misolida namoyon bo'lgan (Abu Yusuf ibn Yoqub ibn Yusuf ibn Talhaning fors tilida yozilgan "Faqihlar tajribasi" kitobi Ashrafuddin Ahmad ibn Asad al-Farg'oniy tomonidan arab tiliga tarjima qilingan). Bu asar nisbatan kichik hajmda, taxminan 120 varaq. Biroq qizig'i shundaki u Asad al-Farg'oniy tomonidan arab tiliga tarjima qilinibgina qolmay, balki to'ldirilganligi va keyinchalik aynan al-Farg'oniyning asari sifatida e'tirof etila boshlagani aytiladi. Shuning uchun ham "al-Fatovo al-Qoidiya" asari vodiya ilmiy asarlarni fors tilida yozilishiga o'tish davrining namunasi sifatida ko'rilishi lozim degan fikrdamiz. Movarounnahrni mo'g'ullar tomonidan istilosi bu jarayonni jadallashiga turtki bo'lgan omillardan biri sifatida ko'rilishi mumkin.

## XULOSA

"Farg'ona fiqh maktabi olimlarining islom ilmlari rivojida o'rni (IX-XIII asrlar)" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqot va izlanishlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Islom dini vujudga kelishi arafasi va ilk islom davrida Arabiston yarim orolidagi siyosiy, diniy-ijtimoiy vaziyat mintaqaning Vizantiya va Sosoniylar imperiyasi hukmronligi ta'siri ostida ekanligi, ijtimoiy hayot urug'-qabilachilik munosabatlari asosida qurilganligi bilan xarakterlanadi. Buning asosiy sabablaridan biri hududning o'ziga xos iqlim sharoiti edi. Yarim orolning aksar qismi asosan sahrodan iborat ekanligi bois, aholining katta qismi ko'chmanchi chorvachilik bilan mashg'ul edi. Vohalar va karvon yo'llari ustida joylashgan shaharlarda (Makka, Yasrib, Toif kabi) boy zodagon tabaqalar vujudga kela boshlagan, quldorchilik munosabatlari endi shakllanib borayotgan bo'lsa-da, hali urug'chilik qabilaviy munosabatlar ustuvor edi. Diniy-ijtimoiy jihatdan ko'p xudolik sharoitida axloqiy-ma'naviy qadriyatlar ham ayanchli deb ta'riflanadigan holatda edi. Bularning barchasi islom dinini vujudga kelishiga zamin yaratdi.

2. Ilk islom davrida ijtimoiy, iqtisodiy, diniy siyosiy jabhalaridagi tarixiy o'zgarishlar "xulafolar-shohidlar" davrida sodir bo'ldi. Zero, musulmonlar jamoasi aynan shu davrda davlatchilik belgilarini o'zida mujassam qilgan islom davlatiga aylandi. Bu jarayon nafaqat diniy (ridda harakati) balki siyosiy kurashlar (xalifalik boshqaruv tizimini joriy etilishi, yangi mamlakatlarning fath etilishi) ostida kechdi. Natijada Shimoliy Afrikadan to Markaziy Osiyogacha bo'lgan hududni egallagan imperiya shakllandi. Bu davlatni boshqarish esa qonunchilik va boshqaruv tizimini shakllantirish zaruratini keltirib chiqardi.

3. Fiqh ilmining shakllanish jarayoni davlatchilik tarixi bilan bevosita

bog‘liq holda kechdi. Shu boisdan uni tadqiq etishda davriylashtirish uslubini qo‘llash maqsadga muvofiq. Ilmiy adabiyotlarda bu jarayonni davrlashtirishning ikki uslubi mavjud bo‘lib, jamiyatidagi siyosiy-ijtimoiy o‘zgarishlar asosida davrlarga ajratilgan va olti davrni o‘z ichiga olgan uslub fiqh ilmi tarixini izchil va xolis tadqiq qilishga munosibroqdir.

4. Fiqh ilmi rivojida mintaqaviy maktablarning vujulga kelishi obyektiv zarurat hosilasi bo‘ldi. Zero, jamiyatida paydo bo‘ladigan huquqiy muammolarga asl islom manbalari asosida yechimlar topish ehtiyoji tug‘ildi. Natijada bunday maktablarning mavjud bo‘lishi shartlari (rivojlangan madaniyat), talab (yuksak ilmiy salohiyat) va mezonlar (mujtahid darajasidagi allomalar yetishib chiqqanligi) shakllangan.

5. O‘rta asrlarda Farg‘ona mintaqasida madaniyat va ilm – fan rivojlanishi uchun munosib shart sharoit bo‘lganligi (Marg‘ilon, Axsikent, Quva, O‘zgand, O‘sh kabi yirik shaharlar mavjudligi) ilm-fanning turli sohalari muvaffaqiyatli rivojlanganligi (diniy ilmlardan fiqh (usul va furu‘), hadis, faroiz va fatvo yo‘nalishlari, tabiiy ilmlardan matematika, handasa, tarix, adabiyot, tilshunoslik ilm sohalari) bu davrda yashab ijod qilgan allomalar (turli manba va adabiyotlarda ularning soni 500 dan ortiq ekanligi aytilsa-da, hozircha tarjimai holi va ilmiy merosiga oid ma‘lumotlar bilan tasdiqlanganlari oltmishdan ortiq) tarixiy manbalar, jumjadan epigraphic yodgorliklar (Farg‘ona vodiysidan topilgan qabrtoshlardagi ma‘lumotlar) asosida aniqlandi va ilmiy asarlar bilan tasdiqlandi.

6. Fiqh ilmi Farg‘onaning barcha hududlari uchun xos bo‘lgani holda (mujtahidlar Faxruddin Qozixon, Husomuddin al-Axsikatiy, Burhonuddin al-Marg‘inoniy, Alouddin al-Kosoniy, Sirojuddin al-O‘shiy) mintaqaning alohida hududlarida ilmning muayyan yo‘nalishi rivojlanganligi tendensiyasi aniqlandi. Misol uchun Axsikentda tarix va adabiyot (Abu-l-Vafa Muhammad al-Axsikatiy (vaf.1126) Zu-l-fazoil Ahmad ibn Muhammad al-Axsikatiy (1073-1134) va boshqalar) Farg‘onada hadis ilmi (Rahma ibn Rohib al-Farg‘oniy, Bilol ibn Mas‘ud al-Farg‘oniy va boshqa) taraqqiy etgan. Bu o‘z navbatida mintaqada mahalliy fiqh maktabi vujudga kelishi uchun talab qilingan shartlar topilganini ko‘rsatadi.

7. Farg‘ona fiqh maktabi allomalarining fiqh ilmi rivojiga qo‘shgan xizmatlari ularning hanafiy mazhabi doirasida ishlab chiqqan ilmiy uslubiy an‘analarini boshqa musulmon mamlakatlarida tatbiq etilganida (Shom, Pokiston, Hindiston), maktab vakillari asarlari qo‘lyozma nusxalari dunyoning o‘nlab mamlakatlari (Yaqin Sharq mamlakatlarida Misr, Saudiya Arabistoni, BAA, Suriya, Yaman. Omon, Turkiya, g‘arb mamlakatlarida Germaniya, Fransiya, Angliya, Irlandiya) fondlarida saqlanishida, hamda maktab vakillari asarlarining turli mamlakatlarda ko‘chirilgan nusxalarining mamlakatimizda saqlanishida (masalan “al-Hidoya”ning Afrika qit‘asida (Misr inv. № 3019/1), Xitoyda (Qashg‘ar inv. № 11302), Hindistonda (inv. № 3007/1), Pokistonda (Peshovar inv. № 6185), Turkiyada (Istanbul inv. № 8662) ko‘chirilgan) namoyon bo‘ladi.

8. Farg‘ona fiqh maktabi olimlarining soha rivojidagi o‘rnini ularning asarlariga yozilgan sharhlar miqyosi (masalan, “al-Hidoya”ga musulmon

dunyosida 60 dan ortiq sharhlar bitilgan), usul al-fiqh sohasida o'sha davr ilmiy yutuqlarini o'zida jamlash barobarida qiyos tamoyilini fiqhning usullaridan biri sifatida talqin qilishni amalga oshirishga joriy qilganliklari (Muhammad al-Lomishiy va Husomuddin al-Axsikatiy) tasdiqlaydi

9. Farg'ona fiqh maktabi vakillari hanafiy ta'limoti doirasida Qur'oni Karim, Payg'ambar (s.a.v.) sunnatlari, obro'li sahobalar dalillari va guvohliklariga, barcha fiqhiy masalalarni ahli sunna va-l-jamoat mazhablaridan shofe'iy, molikiy va hanbaliylar hukmlari bilan qiyoslashga asoslangan o'z uslub va xos yondoshuvlari asosida islom olamida turli fiqohlar, guruhlar va, hattoki, ahli sunna va-l-jamoat mazhablari o'rtasidagi ixtiloflarga aniqlik kiritish, ularni bartaraf etish yo'llarini mintaqada misolida isbotlaganlar.

10. Maktab vakillarining fiqhiy masalalar bo'yicha qaror qabul qilishda demokratik prinsiplarga rioya qilishlari (masalan, mazhabboshi Abu Hanifaning emas, mantiqan o'rinli bo'lgan imom Abu Yusuf va Muhammadlarning fikrlarini olish), hanafiy fiqhining ustuvorligini butun islom olamida (Alouddin al-Kosoniy Shomda bevosita, Burhonuddin al-Marg'inoniy Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, Qashg'arda bilvosita) ta'minlanishi va mintaqada asrlar davomida sof ahli sunnat val jamoatning hanafiy mazhabi daxlsiz qolishiga, ustivor va yagona mazhab sifatida bardavom bo'lishiga xizmat qilishi bilan bir qatorda, fiqh ilmining rivojlanish istiqbollari belgilab beradigan markazlardan biriga aylanishida muhim o'rin tutganligi asoslandi.

### **Tadqiqotdan kelib chiqqan xulosalar asosida quyidagi tavsiyalar berildi:**

- Farg'ona fiqh maktabi doirasida faoliyat yuritgan allomalar va ularning asarlarini aniqlashni davom ettirish;

- Farg'onada tashkil etilgan fiqh ilmiy-tadqiqot markazida aholi qo'lidagi qo'lyozmalarni aniqlab sotib olish, xorijiy mamlakatlar fondlarida saqlanayotgan qo'lyozmalardan nusxalar olib kelish yo'li bilan maktab allomalari qalamiga mansub asarlar qo'lyozmalari xazinasini tashkil qilish;

- Farg'ona fiqh maktab vakillari ilmiy merosini tadqiq qilish, nashrga tayyorlash va aholi o'rtasida targ'ib qilishni yo'lga qo'yish;

- Farg'ona fiqh maktabi allomalari asarlari qo'lyozmalari katalogini yaratish.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES  
DSc.02/30.12.2019.Tar.44.01 AT THE INSTITUTE OF ORIENTAL  
STUDIES OF THE UZBEKISTAN ACADEMY OF SCIENCES**

---

**ABU RAYHAN BERUNI INSTITUTE OF ORIENTAL STUDIES  
UZBEKISTAN ACADEMY OF SCIENCES**

**KARIYEV ADIL AXMADJANOVICH**

**ROLE OF SCHOLARS OF THE FERGHANA SCHOOL OF FIQH IN THE  
DEVELOPMENT OF ISLAMIC SCIENCES (9<sup>TH</sup>-13<sup>TH</sup> centuries)**

**07.00.03 – World history**

**07.00.08 – Historiography, source studies and  
historical research methods**

**ABSTRACT OF DOCTORAL (DSc)  
DISSERTATION IN HISTORICAL SCIENCES**

**TASHKENT – 2024**

**The topic of the dissertation of the Doctor of Historical Sciences (DSc.) is registered at the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under No. B2024.1.DSc/Tar173.**

The dissertation was completed at the Abu Rayhan Beruni Institute of Oriental Studies of the Uzbekistan Academy of Sciences.

The abstract in three languages (Uzbek, English and Russian) is posted on the web page of the Scientific Council ([www.beruni.uz](http://www.beruni.uz)) and on the Information and Educational Portal "Ziyonet" ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz))

**Scientific consultant:**

**Abdukhalimov Bakhrom Abdurakhimovich**  
Prof., D.Sc. (Historical Sciences)

**Official opponents:**

**Yusupova Dilorom Yunusovna**  
Prof., D.Sc. (Historical Sciences), academic

**Anarbayev Abdulhamid,**  
Prof., D.Sc. (Historical Sciences),

**Islamov Zohidjon Mahmudovich**  
Prof., D.Sc. (Philological Sciences)

**Leading organization:**

**The Center of Islamic Civilization in  
Uzbekistan under the Cabinet of Ministers of  
the Republic of Uzbekistan**

The defense of the dissertation will be held on “ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2024 at \_\_\_\_\_ hours at a meeting of the Scientific Council awarding scientific degrees DSc.02/30.12.2019.Tar.44.01 at the Abu Rayhan Beruni Institute of Oriental Studies, Uzbekistan Academy of Sciences. (Address: 100170, Tashkent, M. Ulugbek st. 79, Tel: (99871) 262-54-61; fax: (99871) 262-52-77; e-mail: [beruni1@uznet.net](mailto:beruni1@uznet.net)).

The doctoral dissertation was registered at the Information Resource Center and the Abu Rayhan Beruni Institute of Oriental Studies, Uzbekistan Academy of Sciences. (Address: 100170, Tashkent, M. Ulugbek st. 79, Tel: (99871) 262-54-61.

The abstract of the dissertation has been sent out “ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2024 of the ear. (register of the mailing protocol no \_\_\_\_ from \_\_\_\_\_ 2024 ear).

**N.E. Karimova**

Vice-Chairman of the Scientific Council of awarding scientific degrees, Doctor of Historical Sciences, Professor

**F. Jumaniyazova**

Academic Secretary of the Scientific Council of awarding scientific degrees, PhD.

**E.Z. Nuriddinov**

Chairman of the seminar at the scientific council of awarding scientific degrees, Doctor of Historical Sciences, Professor

## INTRODUCTION (abstract of DSc dissertation)

**Relevance and necessity of the dissertation topic.** In world historiography, the emergence of Islam and the research of the Islamic civilization formed on this basis are becoming important areas of inquiry. In the context of this increasing process of integration, interest in studying this topic has increased. This includes the role and specific characteristics of regional fiqh schools in the history of political, spiritual and cultural development of Muslim countries, and the political, economic and spiritual aspects of different countries of the Islamic world. Overall the importance of researching the impact on these spiritual processes is increasing. Accordingly, it is important to study the history and activities of regional scientific schools that played an important role in the development of humanity and Islamic culture.

**In scientific research centers and leading universities in the world which specialize in Hanafi** doctrine, characteristics of Hanafi jurisprudence in the 9<sup>th</sup>-13<sup>th</sup> centuries, regional schools, scholars who worked in the field of Islamic sciences and their scientific heritage, scholarly investigations focused on revealing the sources of Hanafi jurisprudence and their socio-historical, legal and textual aspects are being conducted. In particular, studies have been carried out on the value and importance of the first madhhabs, madrasahs and regional schools which were formed in the Muslim East during the early Islamic era. No special studies have been conducted on the history of the Ferghana school of jurisprudence, but works dedicated to the study of scholars who came from this region are being carried out. Also, it is necessary to emphasize that regional jurisprudence schools, formed in the middle ages and serving the development of the world Islamic civilization, occupy a special place in our country. To this end researching the history of local scientific centers, including the Ferghana school of jurisprudence, and determining its place in the development of cultural and Islamic sciences in the region will serve to increase the depth of existing research.

In modernizing Uzbekistan, including the period of the Muslim renaissance that arose in Central Asia in the 9<sup>th</sup>-13<sup>th</sup> centuries studying the scientific heritage created by our ancestors and continuing the traditions of the scientific schools created by them are among the urgent tasks at present for our nation, which is on the threshold of a new Third Renaissance. After all, it is extremely important, "to further strengthen the international reputation of Uzbekistan as a country that has made a great contribution to the development of world science and culture, to take the work of preserving, studying and widely promoting its rich written heritage to a new qualitative level."<sup>1</sup> The Ferghana school of jurisprudence, which was formed in the Middle Ages in our country and played an important role in the development of Islamic sciences, including the science of jurisprudence, possesses significant influence not only in our region but also in the entire Muslim world. Consequently the first study of the characteristics of the Ferghana school of jurisprudence, and

---

<sup>1</sup>Mirziyoyev Sh. "On measures to further improve the system of preservation, research and promotion of ancient written sources" Decision No. PQ-2995. May 24, 2017.

the introduction of this concept into the science of history, while elucidating the true history of Uzbekistan, is of particular importance due to justifying its contribution to world civilization, raising the spirituality of our people and realizing their identity.

Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan PQ-2774 dated February 14, 2017 "On measures to establish the Imam Termizi International Research Center", PQ-2855 dated March 27, 2017 "On measures to establish a research center of Imam Bukhari International Center at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan", PQ-2995 "On measures to further improve the system of preservation, research and promotion of ancient written sources" dated May 24, 2017, PQ-3080 dated June 23, 2017 "At the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan" Decisions on measures to establish the center of Islamic culture in Uzbekistan, orders No. PF-5416 of April 16, 2018 "On measures to fundamentally improve the activities of the religious and educational sphere ", Addresses to the Oliy Majlis on December 22, 2022 i as well as the tasks defined in other regulatory legal documents on the subject mean that deep attention is paid to the study of the spiritual heritage left by the ancestors, and this research also serves the implementation of these tasks to a certain extent.

**Dependence of the research on directives prioritizing the of development of science and technology of the republic.** This dissertation was carried out in accordance with the directive prioritizing republican science and technological development I. "spiritual-ethical and cultural development of a democratic and legal society, formation of an innovative economy".

#### **Review of foreign research on the topic of the dissertation**

Special studies on the history of Ferghana fiqh school have not been carried out in the world. However, research indirectly related to the topics of characteristics of Hanafi jurisprudence in the 9<sup>th</sup>-13<sup>th</sup> centuries, such as regional schools, scholars who worked in the field of Islamic sciences and their scientific heritage, scientific research dedicated to the study of the socio-historical, legal and textual aspects of sources related to Hanafi jurisprudence, has been undertaken at the world's leading scientific research centers and higher education institutions. These institutions include Heidelberg University, Freiburg University, Center of Islamic Studies in Freiburg (Germany), Cambridge University, University of Oxford Institute of Islamic Studies (Great Britain), University of Toronto Department of Near and Middle Eastern Civilizations (Canada), Department of Middle Eastern Languages and Literatures, University of Washington (Seattle), Department of Middle Eastern Studies, Princeton University, Columbia University, Cornell University, University of Illinois (USA), Academy of Notaries Institute Hispano-Arab Culture, University of Granada (Spain), International Society of Arabic Papyrology in Leiden-Holland (Holland), Jerusalem University (Israel), Cairo University (Egypt), Suleymanie Library (Turkey), Povolje Kazan Federal University (Russia), Uzbekistan International Islamic Academy, Uzbekistan Center of Islamic Civilization, Imam Bukhari International Research Center, Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni of the Academy of Sciences of

the Republic of Uzbekistan (Uzbekistan). Among the studies on Hanafi jurisprudence, there are also those on the scientific heritage of representatives of the Ferghana school of jurisprudence.

As a result of these studies, the following scientific results were obtained: In the 9<sup>th</sup>-13<sup>th</sup> centuries, works dedicated to the scientific heritage of representatives of the school were carried out as research on Hanafi jurisprudence in the Movarounnahr region (University of Wales, Lampeter). Commentaries on the works of scholars of the region are analyzed (Umm al-Qura University of Saudi Arabia), their contributions to the development of Hanafi jurisprudence and their place in this process are revealed (Maktaba Muhammad ibn al-Hasan al-Shaybani. Timirkara, Pakistan), the approaches of jurists in the analysis of legal issues in Hanafi jurisprudence, the characteristics of relying on the text of the Holy Qur'an were studied (State University of New York, USA), the sources of theory, practice and traditions in Islamic Sharia were analyzed (St. Antonys College, University of Oxford), the ideas and goals of translating the works of Hanafi jurisprudence into Western languages are revealed (Legal Histories of the British Empire: Laws, Engagements and Legacies. London: Routledge), the concept of madhhab in Islamic law, and the reasons for conflicts within the Hanafi madhhab (Harvard University), the research and publication of authoritative sources on Hanafi jurisprudence was carried out (Bristol: Amal Press, 2009; London: Mu'assat al-Furqān lil-Turāth al-Islāmī, 2016; Cairo: Dār al-Ḥadīth).

Scientific research is being carried out in the world, regarding the history of its formation, the oriental interpretation of the protection of human rights in Hanafi jurisprudence, the basic foundations of democratic principles, the historical-legal, the socio-political, areas prioritizing revealing the educational and legal roots, comparative study of the works written by the scholars of the Movarounnahr region, and creating a critical text of the sources.

**The level of study of the problem.** The issue of the Ferghana fiqh school and the role of its representatives in the development of Islamic sciences has not been studied as a separate research topic. However, the jurisprudence of Movarounnahr within the scientific heritage of scholars from the Ferghana region has been involved to a certain extent in scientific research.

First of all, the authors who wrote works in the bio-bibliographic genre provide general information about the lives and scientific heritage of Hanafi scholars of Islamic sciences who lived and worked in the Movarounnahr region in the 9<sup>th</sup>-13<sup>th</sup> centuries. Among them, Abdul Qadir al-Qurashi (696/ 1297-774/1373)<sup>2</sup>, Ibn Qutlubuga (801/1399-878/1474)<sup>3</sup>, Mahmud ibn Suleiman al-Kafavi (d.990/ 1582)<sup>4</sup>, Haji Khalifa (1017/1609-1067/1657)<sup>5</sup>, Abdulhay al-Laknavi

<sup>2</sup> ابو محمد عبد القادر ابن ابو الوفاء محمد ابن محمد المصري. الجواهر المضبوطة في طبقات الحنفية. مجلد ٢ - ١٩١٣ حيدرآباد.

<sup>3</sup> ابن قطلبغا القاسم ابن عبد الله الصدني. تاج التراجم في طبقات الحنفية. لبيزغ - ١٩١٣

<sup>4</sup> محمود ابن سليمان الكفوي. كتائب اعلام الاخيار من فقهاء مذهب النعمان المختار. ص. - ٣٧٩.

Manuscript, Inv. No. 2929 of Abu Rayhan Beruni Institute of Oriental Studies, Uzbekistan Academy of Sciences

<sup>5</sup> Haji Khalifa. Lexicon bibliographicum et enciclopedicum a Mustafa bin Abdallah Katib Jalabi. – London, 1858. V-VI. - R. 479-495.

(1263/1848-1303/1886)<sup>6</sup>, etc.

Professor A. Q. Mominov, one of the modern researchers, has focused on the formation of jurisprudence in Movarounnahr based on Mahmud ibn Suleiman al-Kafavi's work "Kataib a'lam" and the activities of local schools and regional scholars in this process<sup>7</sup>.

In Uzbekistan, research was conducted on the life and scientific heritage of scholars from the region. Among this research, scholars such as A.H.Saidov, M.Nuritdinov, I. Abdullayev, M. Hasaniy, A.Sh. Juzhoni, S. Isakov, O'.A. Sultanov examined the personality and scientific heritage of Burhanuddin al-Marginani, one of the biggest representatives of the Ferghana region<sup>8</sup>.

In addition, the translation of Burhanuddin al-Marginani's work "Hidaya" by V.N.Grodekov in Tashkent in 1893 from English to Russian was republished by prof. A.H.Saidov.<sup>9</sup> Under the guidance of professors A.H.Saidov and M.Nuritdinov, the translation of the first volume of the work "Hidaya" from Arabic to Uzbek was published.<sup>10</sup>

In the Muslim East, the theory and practice of fiqh madrassas and schools, and then the emergence of fiqh madhhabs, have been studied by a number of scholars. Manno' al-Qatton (1925-1999), Hasan Ibrahim Hasan, Shams ad-Din al-Dahabi (672/1274-748/1348), Jalaluddin Abdurrahman al-Suyuti (849/1445-911/1505), Muhammad al-Khudri (1876-1958), Wali ad-din Muhammad Salih al-Farfur (d. 2020), Bint al-Mufti Mujib ar-Rahman ad-Dayraviy's studies are among them<sup>11</sup>.

A group of studies carried out by Western experts is also dedicated to the study of the scientific heritage of scholars who grew up in the Ferghana Valley. In particular, the doctoral dissertation submitted by the researcher of the University of Wales, Ahmed Abbas, is dedicated to the study and publication of the manuscripts

---

<sup>6</sup> ابو الحسنات محمد عبد الحي اللكنوي. الفوائد البهية في ترجم الحنفية. قازان - 1903

<sup>7</sup>Muminov A.K. Kata 'ib a' lam al-akhyar" al-Kafavi (d.990/1582) kak istochnik po istorii Islama v Maverannakhre (III / IX-VII / XIV vv.). Autoref. dis... kand. ist. nauk – L., 1991. – P. 14; Ibid. Hanafitsky madhhab v istorii Tsentralnoy Azii/ pod redaktsiyey S.M. Prozorova. – Almaty : Qazaq ensyklopediasy, 2015. – 400 pp.

<sup>8</sup>Saidov A.H. Burhonuddin al-Marginoniy. "Hidaya" – muhim huquqiy yodgorlik // Ozbekistaon Ovozi, 1994. – May 3; Ibid. Burhonuddin al-Marginoniy buyuk huquqshunos. – T.: Adolat, 1997. – P. 45; Saidov A.H., Juzhoni A.Sh. Sharq va Inson huqulari. – T.: Ijtimoiy fikr, 1998. – 215 p.; Saidov A.H., Nuritdinov M. Fiqh ilmining sardori. // Ishonch, 2000. September 9; Abdullayev I. Burhonuddin Marginoniy // Namangan haqiqati, 2000. May 3; O'ktam Eshonbabo. "Hidoya"ning sohibi. – Ferghana., 2000. – 25 p.; Abdulkhakim Shar'iy Juzhoni. Marg'inoniy va uning izdoshlari. – T., 2000. – 54 p.; Ishoqov S. Burhoniddin Marg'inoniy va fiqh ilmi. – T.: Adolat, 2000. – 136 p.; Mahmud Hasaniy. Al-Marg'inoniyning "Hidoya" asari unga yozilgan sharhlar. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2000. – 45 p.; Sultonov O'.A. Burhoniddin Marg'inony nasabi va avlodlari taqdiri. / Imom Buxhoriy saboqlari. No. 2/ 2021. – Pp. 53 - 55.

<sup>9</sup> Grodekov V.N. translated Hidaya into Russian from Charles Hamelton's English translation. See Hamilton C. The Hidaya: Commentary on the Islamic Laws. Lahore: Premier Book House. (Original 1791 edition translated by order of the Governor-General and Council of Bengal, for the East India Company, printed by T. Bensley.)

<sup>10</sup>Burhoniddin al-Marg'inoniy. Hidoya. Managing editors Dr. Saidov A.H. (D.Sc. in Law), Dr. Nuriddin M. (D.Sc. in Philosophy). – T.: Adolat, 2000. – 848 p.;

<sup>11</sup> Shams ad-Din al-Zahabi. Tarikh al-Islam and Ziyaluhu. Beirut. Dar al-Kutub al-Arabi. 1990.; محمد الخضرى . تأريخ . ١٩٩٥ ولي الدين محمد الفرفور. المذهب في اصول المذهب علي المنتخب. - دمشق. ١٩٩٩ تاريخ التشريع الاسلامى . Ij. Dar al-Jil. – Bayrut, 1996. Jaloluddin Abdurrahmon as-Suyuti. Tarix al-Xulafa. Bayrut. Dar ibn Hazm. 2002.; Bint al-Mufti Mujib ar-Rahmon ad-Dayraviy. Al-Hodi ila Riyod al-Fiqh va-l-Fuqaho. – Timrkara. Pokiston. 2014. – P. 253.

